

ISBN: 978-93-54765-23-4

# HISTORY OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN (1920-1927 YEARS)



**Authors:**

MAXMUDOVA AZIZA NUGMANOVNA  
MARDIYEVA GOZAL KARIMOVNA

Published by

**Novateur Publication**

407, Sadashiv Petri, M S India-411030

[novateurpublication.org](http://novateurpublication.org)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**



**MAXMUDOVA AZIZA NUGMANOVNA**

**MARDIYEVA GO'ZAL KARIMOVNA**

**O'ZBEKISTON MAORIF INSTITUTLARI TARIXI**

**(1920-1927-YILLAR)**

**MONOGRAFIYA**

**SamDTU**  
**axborot-resurs markazi**

**Hindiston 2023**

## Mualliflar:



**Maxmudova Aziza Nugmanovna**- PhD, Dotsent Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası mudiri.



**Mardiyeva Go'zal Karimovna** - Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası assistenti

*Monografiyada XX asr 20-yillaridagi Turkiston xalqlarining ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, Samarqanddagi ta'limning an'anaviy va modernizatsiyalashuv jarayonlarining xususiy jihatlari, umumiy ta'lim va o'qituvchilar tayyorlash sovet tizimining shakllanish dinamikasi, xalq ta'limi sohasidagi salbiy hodisalar va ularning sabablarini ko'rsatish, xalq ta'limining sovet tizimidagi o'quv-tarbiya jarayonining ma'naviy-xalqparvarlik jihatidan qashshoqlashuvi va majburiy siyosatga tortilishining zararli oqibatlari tahlil etilgan.*

*Monografiya pedagogika tarixchi olimlar, shuningdek manbashunoslik, atamashunoslik tadqiqotchilari va oliy ta'limda ukiydigan barcha mutaxasis va nomutaxasis talabalari uchun mo'ljallangan.*

## Taqrizchilar:

**Muxamedova Z.M.** – Toshkent davlat stomatologiya instituti professori

**Samieva G.U.** – Samarqand davlat tibbiyot universiteti professori

**Usmanova L.R.** – Samarqand davlat tibbiyot universiteti PhD. dotsent v.b.

## Mas'ul muharrir:

**Vafayeva J.B.** - Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori

## Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida jahonda kechayotgan murakkab jarayonlar har bir xalqning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini aniqlash ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Dunyo tajribasida maorif sohasi doimo mamlakatning taraqqiyot darajasini, xalqning farovonligi va madaniy yutuqlarini aniqlab beradigan asosiy mezonlaridan biridir. Ayniqsa, fan va ta'lim tizimi tarixini o'rganish orqali xalqning ma'naviy taraqqiyoti darajasini aniqlash imkoni yaratiladi.

O'zbekiston azaldan ilm-fan va madaniyat taraqqiy etgan hududlardan biri bo'lib, turli tarixiy davrlarda ta'limning ilg'or namunalardan foydalanib kelingan. O'rta Osiyo hududlarini Rossiya mustamlakasiga aylanishi natijasida ta'lim sohasida ham turli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Totalitar tuzum davrida O'zbekistonning haqiqiy tarixini yaratish imkonsiz bo'lib, muammolarni o'rganish doirasi va ularning manbalari qat'iy chegaralangan, tarixiy voqealarga haqqoniy baho berish mumkin bo'lmay, dogmatik yondashish hukm surar edi. Turkistonda sovet hukumati o'rnatilgandan so'ng mustamlaka hukumati mahalliy xalqning ta'lim tizimini to'liq nazoratga oldi. Bu davr maorif sohasida olib borilgan siyosat va ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni o'rganish, qiyosiy tahlil qilish, ulardan xolisona xulosalar chiqarish O'zbekiston tarixining dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Oktyabr to'ntarishidan keyin Turkiston o'lkasida ta'limning ahvoli qanday bo'lgan? Shu maqsadda 20-30 yillardagi Samarqand xalq ta'limi va pedagog kadrlar tayyorlash ahvolini o'rganishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim. Zero, aynan o'sha vaqtlarda totalitar g'oya va keskin sinfiy nuqtai nazarga asoslangan xalq ta'limining sovet modeliga asos solindi. Jamiyatning ma'naviy hayotini bir qolipga tushirishga intilgan bolshevikcha rahbariyat g'oyaviy jihatdan boshqacha fikrlash, umumta'lim sohasidagi o'ziga xosliklarning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash boshladi. Ayniqsa, musulmon maktablari va madrasalari bundan

ko'p jabr ko'rdi. Kuch ishlatish, qatl qilish usullari bilan bolsheviklar partiyasi va sovet hokimiyati 20-yillarning oxiriga kelib an'anaviy maktablarni deyarli tugatdi.

O'rganilayotgan davrning muhim xususiyati shundaki, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalardagi inqroz hamda islohotlarning murakkab omuhtasi, mahsulot bozori munosabatlarini tiklashga va hokimiyatning totalitar rejimini mustahkamlashga intilish kabilar bilan ko'zga yaqqol tashlanadi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish davrida hukumatning umumta'lim siyosatida ba'zi qirralari oydinlashdi, xalq ta'limi tizimi bozor munosabatlariga moslashishga majbur bo'ldi. Yangi iqtisodiy siyosat davri tajribasiga murojaat qilinishi madaniy qurilish yo'lida, shuningdek, umumta'lim sohasida, bozor islohotlari voqeligida uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash va ularning oldini olish uchun qator tadbirlarni ko'zda tutish imkonini beradi.

Boshqa tomondan, yangi iqtisodiy siyosat davri va stalincha davlat boshqaruvining uqubatli zamonlari tarixini o'rganish ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv usullarini qo'llash halokatga olib borishini to'la va asosli ochib berish, ma'naviy-ta'limiy sohada chetga og'ishlarni chuqur idrok etish, shuningdek, milliy manfaatlar poymol etilishi oqibatida sovetlar davri mobaynida to'planib qolgan muammolarni hal qilishning yo'li va vositalarini aniqlash, huquqiy demokratik jamiyatni shakllantirishga yo'l ochadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jarayonida ta'lim tizimini shakllantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni Mazkur vazifalarni bajarish uchun o'tmishda bu zaminda mavjud ta'lim taraqqiyotini va bu tizimdagi ilg'or an'analarni o'rganish va kerakli saboqlar chiqarish katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2909-sonli qarori,

2017 -yil 30-iyundagi PQ-3105-son "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha "Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda va O'zbekiston davlatchiligi, ta'lim tarixini yoritishda mazkur monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

# I bob.XX ASRNING 20-YILLARIDA ROSSIYA HUKUMATINING TURKISTONDA TA'LIMSOHASIDA YURITGAN SIYOSATI

## § 1.1.Turkiston ta'lim tizimiga sovet modeli joriy qilinishidagi zo'rovonlik siyosati.

O'zbek xalqi milliy madaniyatining ma'naviy asosi va ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Arxeolog va tarixchilar ta'kidlashganlaridek, bundan bir necha ming yillar ilgari Markaziy Osiyoda insoniyat madaniyatining dastlabki o'choqlari paydo bo'lgan. Qadimgi davrlardayoq Markaziy Osiyoda Eron guruhining mahalliy tillariga moslashtirilgan yozuvlari bo'lganligi ma'lum. Yozuv alifbo shaklining Sharqiy O'rta dengiz atroflaridan Markaziy Osiyoga va undan Sharqqa qarab tarqalishida so'g'd yozuvi vositachi sifatida maydonga chiqdi. Samarqandda o'g'il bolalar 5 yoshidan xat yozish va hisob-kitobga o'rgatilgan, o'smirlik chog'laridanoq savdo ishlari bilan karvonga qo'shib safarga jo'natilgan. Beruniy va al-Xorazmiy asarlaridan ma'lumki, Sug'diyona va Xorazmda astronomik kuzatishlarga asoslangan maxsus taqvim mavjud bo'lib, qadimiy Xorazmda matematika yaxshi rivojlangan.

O'rta Osiyoning arablar tomonidan fath etilishi barobarida kirib kelgan Islom dini Movarounnahr xalqining ma'naviy hayotida muhim o'rin tutdi. Islom dini o'lka xalqi uchun faqat ishonch manbaigina bo'lib qolmay, balki ma'naviy, axloqiy ma'rifat asosi sifatida ham maydonga chiqdi.

Yuksak axloq ma'rifatga intilish, xalqparastlik o'zbek xalqiga xos xususiyatdir. Bunday xususiyatlar Sharq falsafasi—ma'rifatparvar Islom falsafasi asosida shakllangan, desak xato bo'lmaydi. Bu falsafa Xoja Ahmad Yassaviy, Hoja Bahouddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz dahosini o'zida jamlagan.

Turkistonning ilg'or vakillari hamisha madaniyatni rivojlantirishga, xalqni ma'rifatli qilishga, ta'lim sohasida o'rta asrlar qabohatidan qutulishga intildilar.

XX asr boshlarida mahalliy savdogarlar doirasida yirik ishbilarmonlar qatlami vujudga keldi. Ular paxta savdosi, tog'-kon ishlari, yerni sug'orish bilan bog'liq shartnomalar, temir yo'l qurilishi kabi sohalarda ishbilarmonlik faoliyati bilan shug'ullanishib, o'lkaning iqtisodiy hayotida sezilarli o'rin tutadilar. Ammo Rossiyaga moliyaviy va iqtisodiy qaramlik tobe Markaziy Osiyo ishbilarmonlarining faoliyatini cheklab qo'ydi.

Mahalliy iqtisodda ma'lum bir mablag' to'plab va xalq orasida obro'si ortib borayotgan yangi tovar-bozor va ijtimoiy munosabat egalari bo'lmish milliy ziyolijadidlar vakillari siyosiy hayotga aralashib mustaqillikka intildilar. Jadidlar mustaqillik, ozodlik, millat kelajagi uchun kurash g'oyalarini o'z faoliyatlarida mujassam qildilar. Xalq maorifi muammolari jadidlar siyosiy faoliyatida e'tiborga loyiq soha bo'lib qoldi, zero u paytda ma'naviy hayotga va ayniqsa, maorifga yevropa va ruslarning ta'siri kuchayib, barcha tarmog'ini o'z domiga tortayotgan edi.

Chor hukumati Turkiston xalqlarining ma'naviy taraqqiyoti va milliy o'z-o'zini anglashiga har tomonlama to'sqinlik qilar edi. Bosqinchilar mahalliy aholining ma'naviy hayotiga bevosita aralashmas, "qarama-qarshilikning so'qir qonunini harakatga solmaslik uchun" aholining diniy e'tiqodiga aralashilmaydi, deb aytar edi. Ammo chor ma'muriyati hujjatlaridan birida ochiqdan-ochiq, ta'kidlanganidek, "kelgindi" larning ta'lim tizimidagi bosh yo'li "aholini ruslashtirish va rus xalqiga qo'shib yuborish" dan iborat edi.

Tadqiqotchilar jadidchilik harakatining g'oyaviy manbalarini Alisher Navoiy, Zavqiy, Fuzuliy, Furqat va boshqa Markaziy Osiyo ma'rifatparvarlari bilan bog'laydi. Bolalarga ta'lim berishning "yangi usuli" ("usuli jadid")ni ishlab chiqqan Ismoil G'asparali ma'rifatchilik ishiga katta hissa qo'shdi. Bu usulning samaradorligi benihoya yuqori bo'lgan. Yangi usuldagi maktablar vujudga kelguncha mahalliy millat bolalari musulmon maktab va madrasalarida ta'lim-tarbiya olar edi. Sovet tarixshunosligida bu maktablarning o'ta diniy tarzda ekanligi va jamiyat hayotidan uzoqligi, faqat yodlash tamoyiliga asoslanganligi



ta'kidlanardi. Musulmon o'quv yurtlari, xususan, maktablar haqida yozgan barcha mualliflar hamisha ularning sof diniy yo'nalishda bo'lganligini ta'kidlashdan charchamadilar. Zero, maktablar asosan, masjidlar qoshida ochilib, faoliyat ko'rsatganligi uchun ularni faqat din bilan bog'lab qo'ydilar. Tadqiqotchi R. Rahimov ta'kidlaganidek, bunday nuqtai nazami bildirgan tadqiqotchilar masjid haqidagi tor fikrlardan kelib chiqqanlar. Markaziy Osiyo sharoitida ma'naviy maskanlar faqatgina bir yo'nalishda emas edi. Ular faqat namoz o'qishgagina xizmat qilib qolmay, mahalliy boshqaruv idoralari minbari, xalq majlislari o'tkaziladigan maskan, aholiga zarur maslahat va tavsiyalar beriladigan, uzoqdan kelgan mehmonlarni qabul qiladigan joy sifatida ham mashhurdir ...".

Maktab va madrasalarning masjid qoshida bo'lishi unga ta'limiy vazifani ham yukladi. Musulmon maktabining maqsadi bolalarni savodli qilish edi. Sovet tadqiqotchilarining maktablar ta'lim faoliyatiga bergan salbiy baholariga qaramay, madrasalarda o'qigan bolalarning kattagina qismi o'qish va yozishni puxta o'rganib chiqar va amaldorlar qo'lida kotiblik ham qilar edilar. Ulardan faqat oz qismigina savodsizligicha qolar edi, negaki u yoki bu sabab bilan tahsil ola olmasdi. Arxiv manbalarida ko'rsatilganidek "ba'zi o'quvchilar madrasada to'la musulmon ilmini egallardi. Bolalarni o'qish, yozishga o'rgatish va ularni axloqli, odobli kishilar qilib yetishtirish mudarrislarining vazifasi edi".

Musulmon mafkurasining hukmron mavqei ta'lim va tarbiyaning barcha tizimini diniy yo'nalishda olib bordi, o'g'il va qiz bolalarni alohida-alohida o'qitishni ko'zda tutdi. shu boisdan ham qizlar uchun alohida sinf va maktablar tashkil etildi. XX asr boshlarida bunday sinf va otinxonalar Farg'ona viloyati va Tashkent shahrida ko'pchilikni tashkil etib, 33 ming bolani, shu jumladan deyarli 6200 qizni jalb qilgan edi.

Maxsus qorixonalar ham bo'lib, bu yerda asosan katta yoshdagi kishilar Qur'oni karimni ovoz chiqarib o'qib, yod olar edilar. Bunday qorixonalar ba'zan madrasalar qoshida ham ochilar edi. Musulmon o'rta va oliy maktabi hisoblanmish madrasalar haqida sovet tarixchilari ko'p salbiy fikrlar bildir-

ganlar. Xususan, ular madrasa ham musulmon maktablari kabi faqat diniy ta'lim beradi, deb hisoblar edilar. Bu fikrlarning noto'g'riligi va to'qib chiqarilganligi shundan ma'lumki madrasalarda dunyoviy fanlar ham chuqur o'rgatilar edi. Masalan, XIX asr oxirida Turkistonning ko'pgina madrasalarida quyidagi fanlar o'quv dasturiga kiritilgan:

1. Arab tili grammatikasi, morfologiya, sintaksis, etimologiya, arab nutqi, arab tarixi, Qur'onni o'qish fani va ilmiy bahslar madaniyati;

2. Fiqh ilmi, Qur'onning mazmuni va mohiyati, hadislar, diniy yo'riqlar, merosni bo'lish tartibi haqida ta'limot, qonunchilik asoslari.

3. Falsafa, mantiq, matematika, jug'rofiya, tibbiyot, kimyo va boshqa tabiiy fanlar.

Turkistonning barcha madrasalaridagi ta'lim va tarbiya jarayonida mudarris va talabalar mashhur olimlar, islom va musulmon huquqlari bilimdonlari tomondan yozilgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanishgan, o'rta asrlarda yashagan Imom at-Termiziy, Muhammad al-Xorazmiy, Axmad al-Farg'oniy, Beruniy, Ali Qushchi, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimiz asarlari chuqur o'rganilgan.

Chor bosqinchilik siyosatini yuritar ekan, faqat so'zda musulmon o'quv yurtlarining ishiga aralashmaslik haqida gapiradi, aslida esa diniy maktabdagi bolalar sonini kamaytirishga harakat qilgan. O'lkada rus-tuzem maktablari ochildi va yana qator tadbirlar yordamida musulmon maktablarining ta'sir doirasini kamaytirishga erishildi. Chor hukumatining diniy maktab va madrasalardagi o'quvchilar sonini qisqartirishga qaratilgan ruslashtirish siyosati qanchalik kuchli bo'lmasin, o'lka ma'naviy hayotida madrasalarning obro'si pasaymadi. Maktablar sonining anchagina kengayganligi buni isbotlab turibdi. 1899-yili Turkistonning Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi 4632 maktabda 44773 talaba o'qigan bo'lsa, 1913-yilga kelib eski usuldagi maktablar soni 7290, o'quvchilar esa 70864ga yetdi. Bu davrda maktab va madrasalar soni 7664 ta edi.

Shu bilan birga ijtimoiy taraqqiyot va davr talabiga ko'ra musulmon ta'limi tizimi yangilanishni taqozo etar edi. Musulmon diniy maktablarining xizmati shundaki, ular xalqona madaniyatning shakllanishiga xizmat qildi, inson va jamiyatning ma'naviy-axloqiy o'sishiga yordam berdi. Ammo texnokratik madaniyatning o'sishi ularning e'tiboridan chetda qoldi. Shunga ko'ra, ijtimoiy taraqqiyot dunyoviy ta'lim shakllari va usullarini kengaytirish vazifasini qo'ydi. Vaqt o'tishi bilan, maktab va madrasalardagi ta'lim usulida ayrim salbiy holatlar ham ko'zga tashlanib qoldi. Jumladan, toliblarga nisbatan tan jazosini qo'llash shular qatoriga kiradi. O'quv rejasi va dasturlari eskirib qolgan edi. Ko'pchilik darsliklarda o'rta asrlar musulmon dunyosining bilim doirasi va mafkurasi o'z aksini topgan edi. Bularning barchasi tub aholining ijtimoiy-madaniy o'sishiga to'sqinlik qilib, jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning sifat jihatidan o'sishiga halal berardi.

Shunday qilib, o'lkadagi ta'lim tizimi o'quv jarayonining usulini amalda yangilashni talab etardi. Turkistondagi istilochi ma'muriyatning fikricha, bu vazifani "rus tuzem maktablari" yordamida hal etish mumkin deb ko'rsatildi. Bu maktablarning obro'sini kutarish maqsadida hokimiyat bitiruvchilarga yaxshiyaxshi mansablarni va'da qildi. Ota-onalarni moddiy jihatdan qiziqtirish uchun bir qism bolalar tekin o'qitildi. Mazkur maktablar uchun "Tuzem savodi" darsligi va o'qish uchun xrestomatiya nashr etildi. 1911-yili O'zbekistan va unga yaqin hududlarda 105 ta rus-tuzem maktabi faoliyat ko'rsatdi. Bu maktablar o'quv kuni ikki qismga bo'linishi bilan ajralib turardi. Dastlabki ikki soatda rus o'qituvchisi rus tilida (o'qish, yozish, arifmetika) darslarini olib borar, ikkinchi qismida esa (ikki soat) mulla mahalliy tilda musulmonchilik qoidalarini o'qitardi. Ammo mahalliy aholi o'z bolalarini rus-tuzem maktablariga berishga ko'p ham shoshilmadi, negaki bu ruslashtirish siyosatining bir ko'rinishi ekanligi ayon edi. Natijada, bu maktablarda mahalliy millat o'quvchilari soni ko'paymadi. Mahalliy aholiga yangi usuldagi jadid maktablari ko'proq ma'qul tushdi, ularda musul-

monchilik odatlari saqlab qolinib, zamonaviy jahon pedagogikasidan olingan o'qitish usullari qo'llanilgan edi.

XIX asr oxirida Qirim, Kavkaz, Volgabo'yi, Ural milliy ziyolilari o'rtasida "yangi usul"dagi musulmon maktablarini ochishga harakat boshlandi. 1884-yili Boqchasaroyda "yangi usul" maktabini ochgan Ismoil G'asparali bu harakatning yetakchisi bo'ldi. U yangi usul bilan bolalarni 40 kun ichida yozish, o'qish, Qur'onning bir qancha suralarini yod olish, arifmetika, geografiya va tarixdan ba'zi ma'lumotlarga ega bo'lish imkoni borligini isbotladi. Uning bevosita ishtirokida 1893-yili Samarqand shahrida savdogar Xusainovning uyida Turkistonda birinchi yangi usul maktabi ochildi. 1897-yili andijonlik Sultonmurodboyning paxta zavodida ikkinchi yangi usul maktabi ochildi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 1911-yili o'lkada bunday maktablar soni 63. ularda o'qiydigan bolalar 4100 nafarni tashkil etdi. Yangi usul maktablarining tashkilotchi va o'qituvchilaridan Munavvar qori Abdurashidxonov, Abduqodir Abdushukur o'g'li (Shakuriy), Sattorxon Abdulg'afforxonov, Mahmudho'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi Turkiston jadidlarininr taniqli arboblari faollik ko'rsatdilar. Bu maktablarning aksariyat rahbar va o'qituvchilari darslik hamda o'quv qo'llanmalarining mualliflari ham edilar.

Jadidlar og'ishmay olib borgan harakatlari natijasi o'laroq, bolalarga keng dastur asosida ta'lim va tarbiya berildi. Masalan, Munavvar qorining o'quvchilari arab va fors tillari, tarix, geografiya, fizika, geometriya, arifmetika, o'zbek tili va adabiyoti, Islom tarixi hamda Qur'oni Karimdan saboq olar edilar.

"Taraqqiy", "Xurshid", "Hurriyat" va boshqa gazetalar jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilishda, yangi usuldagi maktablarning ilg'or tajribalarini yoyishda faollik ko'rsatdi. Yangi usul maktablarining obro'si tobora ortib bordi. Natijada, inqilobdan avvalgi yillardayoq 126 ta "yangi usul" maktabi ro'yxatga olinib, ularda 6213 o'quvchi o'qir edi.

Yangi usul maktablari o'z faoliyati bilan rus-tuzem maktablariga raqobat-chigina emas, balki milliy ruhni uyg'otish munosabati o'laroq bosqinchi huku-

matga nisbatan muholiflikda ham bo'ldi. 1912- yili general-gubernator Samsonov tasdiqlagan o'lkadagi ta'lim tartibi haqidagi qarorga ko'ra "umumta'lim bilimlarini beruvchi yangi usul maktablari xalq bilim yurtlari inspeksiyasi ruxsati bilanlangina ochiladi", dastur va o'quv qo'llanmalari ma'muriyat tomonidan tasdiqlanadi. Bunda maktablarni ro'yxatga olish ataylab cho'zib yuboriladi yoki rad javobi beriladi. Ammo o'lka aholisi o'qish haqqi yuqoriligiga qaramay, yangi usul maktablariga ishonch bilan qaradi.

Ayni paytda, Turkistonda Rossiya shaharlaridagidek rus maktablari ham tashkil etilgan edi, viloyat shaharlarida gimnaziyalar faoliyat kursatdi, bundan tashqari o'qituvchilik seminariyalari va amaliy bilim yurtlari ham mavjud bo'lib, lekin ularda mahalliy millat vakillari nihoyatda kam edi. Masalan, 1896-yili o'g'il bolalar gimnaziyasida shug'ulangan 327 o'quvchining 10 nafari (3%), qizlar gimnaziyasida o'qigan 377 o'quvchining 8 nafari (2%) mahalliy millat farzandlari edi. Toshkent o'qituvchilik seminariyasida 25 yil mobaynida (1879-1904) o'qigan 415 kishining 65 nafari, ya'ni atigi 15% gina mahalliy millat vakillaridan edi.

Umuman, qariyb 4 mln aholisi bo'lgan (1897-yildagi aholi ro'yxati bo'yicha 3 mln 730 ming) Turkiston o'lkasida 1908-yili ana shunday boshlang'ich va o'rta bilim yurtlarida 105882 o'quvchi bulib, shundan 26353 nafari rus maktablarida o'qir edi.

O'lkadagi mahalliy millat vakillariga qaraganda rusiyzabon aholi bolalari davlat qaramog'idagi maktablar bilan ko'proq ta'minlangan edi. Bunday holat keyinchalik ham davom ettirildi. 1917-yilning 1-yanvariga kelib Turkiston hududida 577 ta boshlang'ich bilim yurti, 28 ta oliy boshlang'ich bilim yurti, 14 ta qizlar gimnaziyasi va 13 ta o'g'il bolalar o'rta bilim yurti hamda ular tarkibiga kiruvchi 4 ta tijorat va 3 ta amaliy bilim yurtlari, shuningdek, bitta yopiq turdagi kadetlar korpusi faoliyat ko'rsatgan edi. Ularning o'quvchilari orasida mahalliy bolalar juda kamchilikni tashkil etardi. Bu chor ma'muriyatining, birinchi navbatda, ruslar ma'rifatli bo'lsin, degan shovinistik

siyosatining yorqin ifodasi edi. Ammo maktablarning ko'pchiligida rus millatiga mansub yuqori martabali shaxslarning bolalarigina o'qish imkoniyatiga ega edi. Gimnaziya va amaliy bilim yurtlarida oddiy xalq, bolalari nihoyatda kamchilikni tashkil etardi. Chor ma'muriyati diniy va yangi usul maktablari, ulardagi o'qituvchi va o'quvchilarning yurish-turishini qattiq nazoratga oldi. Ammo, shunga qaramay, milliy maktablarning, ayniqsa yangi usul maktablarining rahbarlari, o'qituvchi va bitiruvchilari o'z bilimlari, Vatan taqdiriga nisbatan kuyunchaklik munosabatlari milliy madaniyatni boyitishga qo'shgan hissalarini oqibati ularoq faqat Turkistonning emas, balki Buxoro amirligi va Xiva xonligi tub aholisining ham ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining jonlanishiga yordam berdi.

Shuni ta'kidlash joizki, chor hukumatining zo'ravonlik, ruslashtirish siyosatiga qaramay, o'quv yurtlarining bilim berishda muayan darajada insonparvarlik yo'nalishlari namoyon bo'ldi, an'anaviy diniy maktablar faoliyat ko'rsatdi, milliy ta'limning yangi istiqbolli tamoyili vujudga keldi. 1905-yil inqilobining ta'siri va ayniqsa, chor hukumatining ag'darib tashlanishi bilan maktab ishlarida demokratlash tamoyili o'rin ola boshladi.

Afsuski, 1917-yildagi Oktyabr to'ntarishidan keyin maktab qurilishidagi ilrog' yo'nalishlar barham topdi. Markaziy Osiyoni ruslashtirish siyosatiga qattiq amal qilgan sovet Rossiyasining bolshevistik rahbariyati uni kommunistik mafkura bilan omixtalashtirishga intildi. Sovet hokimiyati maktab qurilishini kommunistik jamiyatni yuksaltirish maqsadlariga qaratdi.

Bolshevik rahbarlar xalq ta'limini qayta qurish mohiyatini "inqilobgacha" bo'lgan maktab tizimini yo'qotish, markscha xayolotlarni amalga oshirish uchog'iga aylantirish singari vazifalarni hal etishdan iborat deb bildi. O'sha davr mafkurasiga ko'ra, maktab ishi "ishchilar sinfi inqilobiy kurashi"ning tarkibiy qismi bo'lishi, kommunizm g'oyalariga xizmat qilishi lozim edi. Sovet maktabi azaldan qat'iy sinfiylik asosiga qurildi, hamisha kommunistik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qildi. Bunda, "Sobiq chor Rossiyasi" qaram xalqlari "o'z

e'tiqodi va urf-odatlariga muvofiq erkin va hech qanday to'siqsiz o'z milliy hayotini yo'lga qo'yish" huquqi haqida deklaratsiyalar qabul qilingan bo'lsa-da, amalda milliy qadriyatlar toptaldi, milliy jihatdan omuxtalashtirish, qaram o'lkalar" xalqlarini azaliy ma'naviy ildizlaridan mahrum etish yo'li tutildi.

Xalq ta'limini tubdan yangilashning bolshevistik dasturida ayrim ijobiy xislatlar ham mavjudligini ta'kidlash joiz. Bepul va majburiy ta'lim olish haqidagi talab, o'qish bilan ijtimoiy ishlab chiqarish mehnati o'zaro aloqasini ta'minlash zarurligini, ijtimoiy mansublikni tan olmaslik va boshqalar haqidagi talablar anashu ijobiy jihatlardan edi. Ammo ular kommunistik ta'limotning tor doirasiga tiqib qo'yilib, qandaydir buzilgan holda talqin etilardi, bu ularning ijobiy xislatiga putur yetkazganligi tabiiy edi. Xalq ta'limi tarkibiga kiruvchi sotsialistik maktablar va boshqa muassasalar sovet modelining markscha-lenincha yo'nalishi talabalarni yakkahokim partiyaning askari qilib tarbiyalash, o'zgalar buyrug'ini so'zsiz bajaradigan, ko'p asrlik tarixidan ajralib qolgan ma'naviy manqurt sifatida shakllantirish kabilarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Shu ma'noda, aytish kerakki, o'zbek xalq o'tgan 70 yil ichida kommunistik tajriba azobini to'laligicha totib ko'rdi.

Oktyabr to'ntarishidan keyinoq maorif tizimidagi ilgarigi boshqaruv idoralarni tugatish va xalq ta'limining sovet modeli asosini yaratish yuzasidan qizg'in harakatlar boshlanib ketdi. 1917-yili noyabr oyida Turkiston o'lkasi Maorif xalq komissarligi tashkil etildi.

Turkiston ASSRning 1918-yil 14-maydagi dekreti bilan o'lka maktab tizimini tubdan sotsialistik asosda o'zgartirish ishiga asos solindi. Unda umummaqbul bo'lgan sovet maktabini tashkil etish zarurligi haqida uqtirilgandi. Mazkur qaror vaqtli matbuotda ham keng muhokama qilindi. Musulmon maorif qurultoyi chaqirilishi munosabati bilan "Ulug' Turkiston", "Ishtirokiyun" gazetalarida qator maqolalar berildi. Jumladan, "Ulug' Turkiston" gazetasida Toshkentda 15-avgust kuni chaqiriladigan musulmon maorif qurultoyiga Qo'-qon, Marg'ilon, Skobelev, Andijon, O'sh, Samarqand, Xo'jand, Jizzax, Kattaqo'rg'on,

Chimkent, Avliyoota, Oqmachit, Pishpak va Almati viloyatidan vakillar taklif etilganligi haqida xabar berildi. Ushbu axborotnomaga Turkiston jumhuriyatining maorif kommissari Uspenskiy va Milliy ishlar komissari Ashurxo'jayevlar imzo chekishgan.

RSFSR MIQning 1918-yil 16-oktyabrdagi dekreti bilan tasdiqlangan "yakdil mehnat maktabi" deb atalgan sovet maktabi modeli dasturiy rejadagi birinchi variant bo'ldi. Yakdil maktab ikki bosqichli bo'lib, birinchisi-8-13 yoshdagi bolalar (besh yillik tahsil) va ikkinchisi- 13-17 yoshdagi bolalar (to'rt yillik tahsil) uchun mo'ljallangan edi.

TASSR MIQ maktablardagi ta'limni ona tiliga o'tkazish haqida dekret qabul qildi, so'ngra "Turkiston maktablari tarkibi haqida qoida"ni chop etdi.

Respublika Maorif xalq komissarligining "o'quvchi yoshlarga" chaqirig'ida ham ug'il ham qiz bolalarni yangi maktabga kirib o'qishra da'vat etilgan edi. Shu ish doirasida Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi 1919- yil boshida "zaruriy maktab tarmoqlarini tashkil etish rejasi" ni tuzdi, xalq ta'limi bo'limlari-ga maktab yoshidagi bolalar sonini va hududdagi aholi milliy tarkibini hisobga olib maktablar uchun binolar tayyorlash vazifasi topshirildi.

Turkiston milliy maktablarida rus tili darsi o'tila boshlandi, rus maktablari o'quv rejasiga esa "turkiy" tilni o'qitish darslari kiritildi; rus va "turkiy" til respublikada davlat tili deb e'lon qilindi. Uchinchi sinfdan boshlab maktablarda har ikkala tilni o'qitish majburiy qilib qo'yildi, lekin har ikkala tilni o'rganish fakultativ tarzda olib borildi. Mutaxassis bo'lmaganligi tufayli ko'pchilik qishloq maktablarida rus tili o'qitilmadi. Rus maktablarida mahalliy til, ya'ni Toshkentda o'zbek, Yettisoyda-qozoq, Zakaspiyda- turkman tillari majburiy fan sifatida o'qitildi. Xalq ta'limi bo'limlariga "hududlarda musulmon bilim yurtlarini ochish yuzasidan tadbirlar ko'rish uchun joylardagi milliy ishlar bo'limi bilan aloqaga kirishish" taklif etildi.

Sobiq Ittifoq va respublika rahbariyati sovet milliy maktablarini tuzishga alohida e'tibor berdi. Negaki Turkistonda rusiyzabon xalqlar soni cheklangan edi.



Aholining asosiy qismini rahbariyat fikriga ko'ra dindorlar ta'sirida bo'lgan mahalliy kishilar tashkil etardi. O'lkada kommunistik dunyoqarashga teskari bo'lgan diniy maktablarning obro'si katta edi. RSFSR va Turkiston bolshevik-sovet rahbariyatining musulmon maktab va madrasalariga munosabati asosandiga nisbatan siyosat va RSFSR XKSning 1918-yil 23-yanvardagi cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish haqidagi dekreti bilan belgilandi. 1918-yil 20-noyabrda TASSR da ham shunday dekret qabul qilindi.

Yoppasiga ezishga qaratilgan "harbiy kommunizm" siyosati, bolsheviklar rahbariyatining favqulodda tadbirlar bilan kommunistik jamiyatga "sakrash"ga intilishi din va diniy muassasalarni ommaviy ravishda quvg'inga olishga qaratildi. Vaqf mulklari tortib olindi, masjid, maktab va madrasalar yopildi. Sovet maktablarining soni kam bo'lganligi sababli mahalliy aholi bolalarining asosiy qismi o'qishdan benasib qoldi. 1918-yili 14-dekabrda Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligining 6486 - sonli buyrug'i bilan musulmon maktablarini moliyaviy jihatdan qo'llash butunlay to'xtatildi, ularga dastlabki tadbir sifatida yangi usul ta'limiga o'tish taklif etildi. O'lkadagi barcha maktablarni o'z tasarrufiga olgan Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi maktabni qayta qurish tartibini ishlab chiqib, joylarga yubordi. Boshlang'ich (uch yillik), o'rta (yetti yillik) va oliy bosqichdagi maktab shakli belgilandi.

Boshlang'ich sinfga yetti yoshdan qabul qilindi. Ushbu bosqich barcha nomdagi quyi boshlang'ich bilim yurtlarini, barcha oliy boshlang'ich bilim yurtlarini va barcha nomdagi o'rta o'quv muassasalarining (gimnaziya, amaliy bilim yurtlari; tijorat bilim yurtlari va hokazo) dastlabki to'rt sinfini o'z ichiga oldi. Bu haqida boshlang'ich maktab uchun bir xil dastur -minimum qabul qilinib, butun respublikada 1919-yildan kuchga kiritildi. Ushbu yilning o'zida Turkiston ASSRning barcha aholi yashash joylarida Xalq ta'limi Soveti orqali yetti yillik maktablar ochilishi lozim edi. Qoidada o'qituvchilar yetishmasligi munosabati bilan "to'la yetti yillik maktablarni" ochish imkoniyati bo'lmasada, mahalliy sharoitga qarab "imkoniyat darajasidagi sinflar ochilishi mumkin"ligi

haqida izoh berilgan edi. Barcha boshlang'ich maktablardagi ta'limning bepulligi taminlandi.

Rus maktablari tezlik bilan isloh qilindi. Asosan sovet hokimiyati mavqei mustahkamlangan shaharlardagi mavjud avvalgi gimnaziya, bilim yurtlari o'mida qisqa vaqt ichida sovet o'quv yurtlari tashkil etildi. Umum ta'lim maktablari bilan bir qatorda "Mehnat maktab-kommunalari" faoliyat ko'rsatdi. 1918-yil sentyabrda V.F.Lubensov tashkil etgan "maktab-kommuna" shunday maktablarning birinchisi edi. 1919 -1920-yillarda Samarqand, Skobelev, Kattaqo'rg'on kabi shaharlarda ham "maktab-kommuna"lar ochildi.

Shuningdek, o'quv-tarbiya ishlari qanchalik siyosatlashtirilmasin, sovet maktablarining moddiy ahvoli nihoyatda og'ir edi. Darsliklar, o'quv ashyolari, xususan, qalam, siyoh, daftar taqchil edi. O'qituvchilar yetishmasligi muammoni yanada jiddiylashtirdi. Ayni vaqtda o'quv dasturlarining takomillashmaganligi, o'quvchilar intizomining pastligi o'qitish ishlarini maromda olib borishga xalal berar edi. Sovet milliy maktablarini tashkil etish qarama-qarshiliklarga to'la edi. Diniy o'quv yurtlarini cheklash, rus-tuzem maktablarining o'zgartirilishi ular tarmog'ining o'sishiga olib keldi. 1918/19 o'quv yili boshlarida Skobelev uyezdida 6 ta o'zbek maktabi ochildi. Toshkentda bu paytga kelib 57 ta milliy maktab bo'lib, ularda 8,5 ming o'quvchi o'qir edi. Samarqand viloyatida mahalliy aholi uchun 100 dan ortiq maktab tashkil qilindi.

Fuqarolar urushi olovi ichida qolgan Farg'ona viloyatida sovet maktablarining tashkil etilishi jarayoni murakkab kechdi. Shunga qaramay, qizil armiya otryadlari "ozod qilgan" joylarda yangi tipdagi maktablar ochila boshladi. Natijada, 1919/20 o'quv yili boshlarida Farg'ona viloyatidagi maktablar soni 350 taga yetdi.

Maktab qurilishining sovetlashtiriluvi shunda ko'rinadiki, avvaliga sovet maktablari asosan shaharlarda ochilayotgan bo'lsa, 1919/20 o'quv yiliga kelib ular qishloqlarda ham tezlik bilan tashkil etila boshlandi. Ko'pchinchi aholini

axborot-resurs markazi

sovet ta'lim tizimi bilan qamrab olishga alohida e'tibor berila boshlandi. Shu maqsadda maxsus maktab-internatlar ochildi. 1921-yil boshida 150 internat faoliyat ko'rsatib, ularda mahalliy millat bolalaridan 15,6 ming nafari tarbiyalanar edi.

Yuqori organlar mahalliy xotin-qizlarni o'qishga jalb etishga siyosiy tus berar edi. Oktyabrdan keyingi jarayonning yangi bosqichida "eski turmushga qizil armiyacha hujum" harakati natijasi o'laroq, o'g'il va qiz bolalarni bir joyda o'qitishga intilish boshlandi. Ammo bu tadbir aholi tomonidan qarshilikka uchradi. Shunda siyosiy manfaatlardan kelib chiqib bolshevistik partiya rahbariyati qisman yon berdi. Milliy xususiyatlar, oz bulsa-da hisobga olinib, qizlar uchun maxsus maktablar tashkil qilish tavsiya etildi. Bunday maktablarning birinchisi 1917-yil dekabrda Toshkentda ochildi. Unda 42 ta o'zbek ayoli o'qidi. So'ngra Samarqand, Andijon, Qo'qon va boshqa shaharlarda xotin-qiz maktablari tashkil etildi. 1920-yil boshida Toshkentda 12 ta, Andijonda 2 ta ayollar maktabi mavjud edi. Qo'qon uyezdida bu davrda 270 nafar o'zbek va 130 nafar qirg'iz ayollari o'qir edi.

Yangi maktablar tashkil etishda tarixiy taraqqiyotning tezlashuviga ishonch bildirgan, mustaqillikka ma'rifatsiz erishib bo'lmasligini tushunib yetgan milliy ziyoli vakillarimizning ro'li katta bo'ldi. O'z dunyoqarashlariga ko'ra, bular jadidchilik harakatining so'l oqimi vakillari bo'lmish ma'rifatchilar edilar. Toshmuhammad Qori-Niyoziy, Sadridin Ayniy, To'xtanazir Shermuhamedov, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ergash Komilov, Oqilxon Sharafiddinov, Abduqodirxo'ja Nabixo'jaev va boshqalar shu oqimga mansub edi. Yangi milliy maktab qurilishida ularning faol ishtirokini shu bilan izohlash mumkinki, sotsialistik qurilishning dastlabki bosqichida sovet hokimiyati yangi usul maktabini qo'llab-quvvatladi, diniy maktabni asta-sekin "yakdil mehnat maktabiga" aylantirib borish uchun harakat qildi.

Ta'kidlash joizki, yangi milliy maktablarda o'qish muddati 2-3 yildan ortmas edi. Ularda o'qituvchilar, o'quv adabiyotlari yetishmas edi. Mamlakat va respubli-

kaning bolshevistik rahbariyati qo'llagan tashkiliy-ma'muriy va siyosiy tadbirlar sovet maktablarini, ayniqsa 1-bosqich maktablar tarmog'ining son jihatidan tez o'sishiga olib keldi. 1917-yili Turkiston respublikasida isloh qilingan boshlang'ich maktablar soni 576 tani tashkil etgan bo'lsa, 1918 -yili 992, 1919-yili 1897, 1920/21 o'quv yilida 2022 taga yetdi. Umuman fuqarolar urushining oxiriga kelib, Maorif xalq komissarligining TASSR Sovetlari X syezdiga qilgan isobotiga ko'ra (1920-yil sentyabr) o'lka-da 97 ming o'quvchili 1320 ta 1-bosqich maktab va mahalliy millat bolalari uchun 994 o'quvchili 3 ta, 2-bosqich, shuningdek, rusiyzabon o'quvchilar uchun 70 ming bolaga 700 ta 1-bosqich va 6826 bolaga 57 ta 2-bosqich maktablar mavjud edi. Shunday qilib sovet maktablari miqdori 2080, o'quvchilar soni 174820 nafarni tashkil etdi. Shu bilan birga sovet ta'limi tarmog'ining ildam miqdoriy o'sishi uning sifat o'zgarishlariga mos kelmadi. Yangi maktablar og'ir moddiy ahvolni bosh-dan kechirar edi, o'quv-tarbiya jarayoni o'zbek xalqining milliy manfaatiga mos kelmadi, malakali o'qituvchilar yetishmadi, bundan ayniqsa milliy maktablar ko'p talafot ko'rdi. O'z maslagidan qaytmagan eski davr o'qituvchilari sovet maktablarida ishlashni xohlamasdi. O'qituvchilar yetishmasligi muammosini tez hal etishga intilgan siyosiy rahbariyat qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish yo'lidan bordi. 1917-yil noyabridayoq Qo'qon, Toshkent, Andijon, Samarqand shaharlarida o'qituvchilar tayyorlaydigan uch oylik kurslar tashkil etildi. Bunday kurslar keyinroq barcha uyezdlarda ochildi. 1918-yili Toshkentda maxsus 6 oylik milliy o'qituvchilar tayyorlov kurslari, 1919-yil may oyida esa Samarqandda 4 oylik kurslar tashkil etildi. 1919-yil yanvarida musulmon ayollari pedagogika kurslarini tashkil etish haqida qaror qabul qilindi.

1920-yili Toshkentda o'zbek o'qituvchilari tayyorlaydigan 6 oylik kurslar ochildi. Bu kurslarda har bir uyezddan 20 kishidan 200 tinglovchi o'qir edi. Tinglovchilarga bepul yotoq va ovqat berilardi. Ammo bunday qisqa muddatli kurslarni bitirib chiqqan muallimlar boshlang'ich sinf o'qituvchilariga bo'lgan

talabning bir qisminigina ta'minlar edi. O'qituvchilarga bo'lgan talabni qondirish uchun 1918-yil 1-iyundan Toshkentda Musulmon o'qituvchilari instituti ish boshladi. O'sha yili 2-noyabrda o'lka poytaxtida milliy maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlash bo'yicha musulmon o'qituvchilari seminariyasi ta'sis etildi. Unda o'qish pedagogika bilim yurti singari 4 yil edi. Ammo ta'limni tashkil etishdagi katta moliyaviy qiyinchiliklar tufayli Musulmon institutida ham, o'qituvchilar seminariyasida ham o'qish uzoqqa cho'zilmadi.

Maktabda darslarni tartibga solish, o'qituvchilar ma'suliyatini oshirish yuzasidan Turkiston Maorif xalq komissarligi 1919-yil 29-martda maxsus buyruq chiqaradi. Mazkur hujjatda shunday deyilgan: „Ona tili, riyoziyot, hisob, handasa, trigonometriya, tabiat, tabiiy jug'rofiya, hikmat darslari asl darslar hisoblanganidan shu fanlardan dars beruvchi muallim faqat muayyan bir maktablardagina qolurga tegishlidirlar“. Umuman, 1918-1921 yillarda kurslarda mahalliy millatlardan qariyb 3 ming va rusiyzabonlardan 802 muallim tayyorlandi. Ammo bu ko'rsatkichlar o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni qondirmas, ustiga-ustak o'qituvchi tayyorlash darajasi past edi. Pedagogika kurslari va maxsus o'quv muassasalarining bitiruvchilari faqat birinchi bosqich maktabining boshlang'ich sinflaridagina ishlay olar edilar.

"Madaniy inqilob" dasturini bajarish uchun katta yoshdagi kishilar o'rtasida savodsizlikni tugatishga alohida e'tibor berildi. "Yoppasiga savodxon"likka erishish bolshevistik rahbariyat uchun ijtimoiy ongini kommunalashtirish, keng "mehnatkashlar" ommasini sotsializm qurilishiga jalb etishning muhim vositasi hisoblanardi.

Oktyabr to'ntarishidan keyin ta'limning sovet modeli o'rnatila boshlandi. Barcha turdagi o'quv yurtlarini moslashtirish, o'quv-tarbiya jarayonini siyosatlantirish, utopik kommunistik dunyoqarashni joriy etish bu tizimga xos xususiyat edi. Sovet rahbariyati dastlab avvalgi har ikkala ta'lim tizimini ildizi bilan qopirish siyosatini tutdi. Qisqa vaqt ichida bolsheviklar chor hukumati ta'lim tizimini yo'qotib, "yakdil mehnat maktabi" sovet modelini o'rnatishga muvaffaq

bo'ldi. Musulmon maktabi quvg'inga uchradi. U ma'muriy va iqtisodiy vositalar bilan bo'g'ildi. Ammo xalq diniy maktablarni qo'lladi. Sovet maktabining obro'si hali nihoyatda zaif edi. Mamlakat va respublika siyosiy rahbariyati Turkistonning rus bo'lmagan aholisini musulmon dini ta'siridan chiqarib olishga intilib, sovet milliy maktablarini tashkil etishga asosiy e'tiborni qaratdi. Milliy o'z-o'zini tiklash va o'lka xalqlarini tez taraqqiy ettirish haqidagi bolsheviklar chaqirig'iga ishongan ayrim milliy ziyolilar, ayniqsa jadidchilik harakati qanashchilari milliy ta'limning sovet tizimi o'rnatilishiga ko'maklashdi. Ammo bu jarayonda asosan sovet davlatining monopolistik mavqeidan foydalanildi. Boshqa o'quv yurtlarining barcha faoliyat yo'nalishlariga barham berib, faqat "sotsialistik maktab" modelini mustahkamlash uchun qat'iy kurash olib borildi. Shu maqsadda o'qituvchilarning yangi tarkibini yaratish, mahalliy aholi o'rtasida marksistik g'oyani mustahkamlash borasida faol ishlar boshlab yuborildi.

### **§ 1.2. Yangi pedagogik o'quv yurtlarining vujudga kelishi**

O'rganilayotgan davrning barcha bosqichlarida maktablardagi mutaxassis o'qituvchilar muammosi muhim masala bo'lib keldi. Yangi iqtisodiy siyosat islohotlari davrida o'quv yurtlari tarmog'ining keskin qisqarishi, maoshning nihoyatda kamligi, ustiga-ustak o'z vaqtida berilmasligi oqibatida ko'plab o'qituvchilar maktabdan ketib qoldi, shu asnoda pedagog xodimlar tayyorlash jiddiy muammoga aylandi. Bularning barchasi o'quv jarayoniga salbiy ta'sir etdi, maktab qurilishiga xalal berdi. Bu muammoni muvaffaqiyatli xal etish maqsadida Maorif xalq komissarligining maktab bo'limi 1921-yili barcha turdagi o'quv yurtlari uchun o'qituvchilar tayyorlash va qayta tayyorlash yuzasidan keng dastur qabul qildi. Asosiy e'tibor, avvalgidek, kurs o'quviga qaratildi. Birinchi bosqich maktablari uchun qisqa muddatda o'qituvchilar tayyorlovchi kurslar shaharlarda, tuman markazlarida va yirik qishloqlarda ham ochildi. Maorif xalq komissarligi qoshidagi maxsus komissiya ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turdi.

Bunday kurslarning tinglovchilari yosh ishchi va dexqonlardan iborat bo'lar edi. Shuning uchun kurslarda marksistik g'oyaviy tarbiyaga, tegishli siyosiy mashg'ulotlarga asosiy e'tibor berildi. Partiyaning eski fikrlar, ko'nikma va odatlardan qutulish "asnosida" mehnatkashlar ommasini tarbiyalash va ularga ta'lim berish, "ularni kommunizm qurishga tayyorlash" ishlarini yo'lga qo'yish haqidagi talabi bosh g'oyaviy yo'nalish bo'lib xizmat qildi.

Pedagogika kurslari, odatda, maktabda o'qitish tugagach, bahorda boshlanar, mashg'ulotlar kech kuzgacha 4-5 oy davom etardi. Viloyat va uyezdlardagi kurslar eng yaxshi maktablarda tashkil etilardi. Respublika Maorif xalq komissarligi markaziy kurslarni tajriba-ko'rgazma maktablarida va maorif institutlarida tashkil qilardi. Kursga kelganlar yotoqxonalariga joylashtirilib, ular uchun o'sha davrga xos imkonqadar sharoit yaratildi. Tinglovchilar orasida chalasavodlar uchrasada, ularni shu yerning o'zida yozish va hisoblashga o'rgatildi, dasturda sovet hokimiyatining dekret va ko'rsatmalari, syezd qarorlari, shuningdek xalq ta'limi konferensiyalari materiallarini o'rganish asosiy o'rin tutardi. Umumta'lim fanlari, o'qitish uslubiyati o'rgatildi. Tinglovchilar o'rtasida bahs keng yo'lga qo'yildi. Respublika Maorif xalq komissarligining pedagogika ta'limi bo'limi tayyorlov va takrorlov kurslari, o'qituvchilik, maktab yo'riqchilari kabi sohalarda qisqa kurslar tashkil qildi. Toshkent, Samarqand, Qoqon va Verniy (Almati) shaharlarida birinchi bosqich rus maktablarining 100 nafar o'qituvchisiga mo'ljallangan takroriy kurslar ishlab chiqildi. Mashg'ulotlar sinf va sinfdan tashqarida olib borilar edi. Sinf mashg'ulotlarida tinglovchilar ma'sul o'qituvchi rahbarligida umumpedagogik va umummilliy mavzularni o'rganishdi, sinfdan tashqari mashg'ulotlar esa ishlab chiqarish mehnatini (ustaxona, tomorqa) tashkil etish va pedagogika amaliyotini o'tashga bag'ishlandi. Maktab o'qituvchilari majburiy tartibda takroriy kurslarda o'qishi zarur edi. Turk MIQ ning sirkulyar xatiga binoan (1920-yil aprel) qirg'iz (qozoq) maktablarining qisqa muddatli pedagogika kurslarida o'qigan barcha o'qituvchilari takroriy pedagogika kurslarida o'qish uchun 10- maydan kechikmay Toshkent yoki Chimkentga kelishlari lozim edi.

Takroriy kurslarda o'qishdan bo'yin tovlaganlar ishdan bo'shatilib, "javobgarlikka" tortilardi.

Ikkinchi bosqich maktabini tugatgan yoki uyida ikkinchi bosqich maktab hajmida bilim olgan shaxslar muallim tayyorlov kurslariga qabul qilingan. Bitiruvchilar birinchi navbatda yo'llanma bilan qishloqqa ishga yuborilardi. Bunday kurslar joylarga qisqa vaqt ichida ko'p miqdorda o'qituvchi tayyorlab yuborish imkonini berardi. Ammo bunday o'qishda tayyorgarlik darajasi nihoyatda past edi. 6 soatdan 220 kunga mo'ljallangan birinchi bosqich maktablari uchun ixtisosli o'qituvchilar tayyorlovchi doimiy yillik kurslar yaxshi natija berdi. Bundan tashqari, oliy pedagogika o'quv yurtlaridan taklif qilingan o'qituvchilar ishtirokida ma'ruzalar ommaviy uyushtirildi. Qirg'iz (qozoq) maktablari uchun qisqa muddatda o'qituvchilar tayyorlash maqsadida qirg'iz instituti qoshida yillik pedagogika kurslari tashkil etildi. 1921-yili unga 16 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan 17 kishi qabul qilindi, shundan ikki nafari ayol edi. Kurslar hisobotida keltirilishicha, mashg'ulotlar davomiyligini uzaytirish lozim edi, negaki "dekabr va yanvar oylarida o'qituvchilarning ozligi tufayli dars olib borilmadi, bu hol dasturni bajarish imkonini bermadi". O'qituvchilar tanqisligi birinchi bosqich maktablarigina emas, shuningdek, tub aholi ona tilida o'qiydigan ikkinchi bosqich maktablari uchun xam xos edi. Ular ham mahalliy millat vakillarini o'qitish, ham til o'rganishni xohlagan yevropalik o'qituvchilar tayyorlash asosida yetkazib berildi. Shuning uchun Turkiston Sharqunoslik institutida 1921-yili sharq tillari bo'yicha yillik kurslar ochildi, bunda ikki davra qirg'iz (qozoq), ikki davra o'zbek, bir davra turkman va bir davra fors guruhlarini bor edi. Har bir bo'limda 20 kishidan shug'ullandi. Ayollar uchun maxsus kurslar tashkil etildi. 1924-yili Samarqanddagi ayollar kursida 90 kishi shug'ullandi, kuzga kelib to'la kursni sakkiz nafar qiz bitirdi. O'quv yili tugaganda (1924-yil oktyabr) turli muddatli kurslarni 1057 nafar o'qituvchi bitirdi, ularning yarmidan ko'pi o'zbeklar edi. Ammo baribir, ilgarigiday hamma joyda o'qituvchi yetishmasdi. Qishloqdan kelganlar kurs tinglovchilarining asosiy qismini tashkil etardi. Ko'pchilik tinglovchilarning pedago-



gik staji juda oz edi. Masalan, 1924-yilda shunday kurslarda 1616 kishi shug'ullangan bo'lib, aksariyati o'zbeklar (1444 kishi), ijtimoiy ahvoliga ko'ra ko'pchiligi dehqonlar (1482 kishi) edi. Bulardan 225 kishi maktabda umuman ishlamagan, 1341 kishining ish staji 3 yildan ortiq emas edi. 1925-yildan birinchi bosqich maktablari uchun uzluksiz va rejali asosda o'qituvchilar tayyorlandi, lekin uning asosiy shakli qisqa kurslar bo'lib qolaverdi. Qayta tayyorlashga birinchi bosqich maktabining 85 % va qishloq maktabining 100% o'qituvchilari jalb qilindi. Bu davrda respublikada malakali o'qituvchilar 2748 nafarni tashkil etdi. Bunday kurslar maktablarni o'qituvchilar bilan tezroq ta'minlash imkonini bersa-da, ammo mutaxassislik bo'yicha ham, o'qitish uslubi-yati sohasida ham chuqur bilim berolmasdi. Bu vaqtinchalik, favqulotda chora edi. Davomli, chuqur dars beriladigan o'quv yurtlarini yaratish davr ehtiyojiga aylangan edi. Uning asosi 20-yillar boshlarida yaratila boshladi. Maorif institutlari, pedagogika texnikumi va bilim yurtlari, o'qituvchilar institutlari shular jumlasidan-dir. 1920-yildan Turkiston Davlat universiteti oliy ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlay boshladi.

20-yillarning birinchi yarmida maorif institutlari yuqori malakali maktab o'qituvchilari tayyorlashning asosiy manbai bo'lib qoldi. Alohida oliy o'quv yurti bulmaganligi uchun ularda boshlang'ich maktab va savodsizlikni tugatish maktablari uchungina o'qituvchilar tayyorlandi. 1923-yili O'zbekistonda 11 ta maorif instituti bo'lib, ularda 1900 talaba o'qir, ulardan 80% ishchi va dehqonlar edi. Keyinroq moliyaviy qiyinchiliklar tufayli ular qayta tashkil etildi. 1924-yili jami 7 ta maorif instituti bulib, shundan beshtasi Toshkentda, Samarqand va Buxoroda bittadan edi. Ilk maorif institutlari 1920-yili Toshkentda ochilgan edi. Shular jumlasidan, Temiryazev nomidagi Xalq maorifi instituti o'lka pedagogika o'quv yurti bo'lib, unda o'qish muddati to'rt yil edi, dastlabki ikki yilda umum ta'lim fanlari o'qitilar, qolgan ikki yilda ayrim mutaxassisliklar bo'yicha pedagoglar tayyorlanardi. O'quv dasturi ikkinchi bosqich maktablar uchun o'qituvchilar tayyorlashga mo'ljallangan edi. Boshqa maorif institutlarida ham

o'qish muddati to'rt yil bo'lib, ularda birinchi bosqich milliy maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlandi.

TASSR XKS 1920-yil sentyabrida chiqargan buyrug'ida keltirilganidek: "Maktab ta'limi sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida" keyingi yil kuzidan Toshkentda quyidagi pedagogika o'quv yurtlari ochiladi:

a) Temiryazev nomidagi Xalq maorifi instituti - Turkiston Respublikasidagi barcha xalqlar uchun mo'ljallangan oliy o'quv yurti, o'qish rus tilida;

b) Qirg'iz xalq maorifi instituti, o'qish qirg'iz tilida (hozirgi qozoq tili nazarda tutiladi);

v) ikkita o'zbek xalq maorifi instituti (erkaklar va ayollar uchun), o'qish o'zbek tilida;

g) Turkman xalq maorifi instituti, o'qish turkman tilida;

d) Turk-tatar maorifi instituti, o'qish tatar tilida olib boriladi.

Ushbu buyrug'ida ko'rsatilishicha, maorif institutining ilmiy xodimlari - qo'mita a'zolari, o'qituvchilar, laborantlar Turkiston Davlat universiteti xodimlariga, ularning tinglovchilari harbiy bilim yurti kursantlariga tenglashtiriladi. Marvda Turkman maorif instituti, Toshkentda Mahalliy yahudiy maorif instituti barpo etildi.

Xalq ta'limining umumiy masalalarini ishlab chiqish, yangi maktab g'oyalari keng omma o'rtasida yoyish, to'plam, monografiya, risola va pedagogika sohasidagi jumallar chop etish maorif institutlari dasturiga kiritildi. Maorif institutlari qoshida bolalar bog'chasi, 1-va 2- bosqich maktablari, bolalar klubi, katta yoshdagilar uchun maktab va xalq o'quvlari uchun auditoriyalar, kutubxona, duradgorlik, tokarlik, temirchilik, chilangarlik ustaxonalari, shuningdek, fizika, kimyo, tabiiy-tarixiy laboratoriyalar, rasm sinflari kabi tajriba muassasalarini tashkil etish ko'zda tutildi.

Toshkentning eski shahar qismidagi ayollar o'qituvchilik kurslari o'zbek ayollari maorif institutini tashkil etish uchun asos bo'ldi. Milliy maorif institutlari

1918-yilda barpo etilgan Poltoraskiy nomidagi Pedagoglar shaharchasidagi pedagogika bilim yurtining qozoq, o'zbek va tatar guruhdagi negizida ochildi.

Xalq maorifi institutlari oliy pedagogika o'quv yurtlari sifatida bo'lishi, "u yerda maktab mehnat jarayonlarini yuritishga texnik jihatdan tayyorgarlik ko'rgan, ilmiy bilim olgan va sotsializm qurilishining yorqin kelajagiga ishongan maktab xodimlarini tayyorlash" ga mo'ljallangan edi. Bunga eng yaxshi pedagog va ilmiy kuchlar jalb etildi. Maxsus pedagogika fanlarini o'qitishga alohida e'tibor berildi. Maorif xalq komissarligi buyrug'i bilan Maorif instituti xodimlariga Turkiston DU o'qituvchilari bilan barobar haq to'landi. Temiryazev nomli institutdan boshqa maorif institutlari oliy o'quv yurtlari deb tan olinmadi, boshqa fanlar o'qituvchilari (shuningdek, Temiryazev nomli Maorif institutining tayyorlov kursi o'qituvchilari ham) universitetning ishchi fakultetlari o'qituvchilariga tenglashtirildi.

1921-yili Turkiston oliy maktablarini isloh qilish maqsadida tuzilgan Turkmaorif ta'lim komissiyasi Turkiston Davlat universitetining barcha fakultetlari va Sharqshunoslik hamda Temiryazev nomidagi Maorif institutlari faoliyatini chuqur tahlil etdi. Temiryazev nomidagi Maorif instituti, komissiya xulosasiga ko'ra dastlabki ikki kursning dasturini ko'rib chiqishi lozim, deb hisoblandi, negaki u gumanitar va tabiiy-tarixiy fan sohalarini qamragan bo'lib, nihoyatda keng yo'nalishga ega edi. Bundan tashqari, maorif institutlarini yuqori ilmiy saviyadagi Turkiston DU fakultetlari, uning fakultetlararo kafedralari kabilarga yaqinlashtirish, shuningdek, komissiya o'qituvchilardan foydalanishni yaxshilash fikridan kelib chiqib, ular hamkorligida ishlash qulay, ayni vaqtda davlat mablag'ini tejaydi degan xulosaga keldi. Shuning uchun Temiryazev nomidagi Maorif instituti Turkiston Davlat universitetining pedagogika fakultetiga aylantirildi. O'qituvchilar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida, respublika maktablari ehtiyojini hisobga olib, maorif institutlari to'rt yillik o'quv muddatlarini saqlab qoldi va ular pedagogika bilim yurti yoki pedagogika texnikumlari tarzidagi o'rt maxsus o'quv yurtlariga aylantirildi.

1922-yil boshlarida respublika Maorif xalq komissarligining pedagogika ta'limi bo'limi ixtiyorida qisqa muddatli kurslardan tashqari 11ta o'rta pedagogika o'quv yurtlari mavjud bo'lib, bular yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, Toshkentdagi Mahalliy yahudiy maorif instituti, Nikolskiy qishlog'idagi pedagogika texnikumi, Samarqand O'zbek maorif instituti, Marv Turkman maorif instituti, Qo'qon O'zbek pedagogika kurslari, Olmaota qirg'iz (qozoq) pedagogika kurslari, Chimkent qirg'iz (qozoq) pedagogika kurslari edi.

Toshkentning eski shahar qismidagi (viloyat) pedagogika texnikumi ham shakllanish bosqichida edi, ikkinchi bosqich o'zbek maktabi texnikumga aylantirildi. Toshkent O'zbek maorif institutida uch asosiy kurs (54 o'quvchi) va ikki tayyorlov (77 tinglovchi) kurslari, yillik o'qituvchilik kurslari (25 tinglovchi) ishlab turdi. Maorif institutida o'quvchilar tabiat, tarix va fizika kabinetlaridan tashqari etikdo'zlik, muqovasozlik va tikuvchilik bo'limlariga ega bo'lgan ustaxonada ishlab chiqarish mehnatiga o'rgatilgan. Ammo institutning moddiy ahvoli unchalik yaxshi emas, binolar tamirtalab edi, 55% o'quvchigina maxsus kiyim bilan ta'minlangan edi.

O'zbek ayollar maorif institutida (Toshkentning eski shahar qismida) uch asosiy va uch tayyorlov sinflari bo'lgan, maktab kursini bitirgan qizlar nihoyatda kamligi uchun tayyorlov sinflariga chalasavodlar ham qabul qilingan. Bunda 140 ayol shug'ullanib, ulardan 60 nafari asosiy kurslarda o'qir edi. Internatda binolar yetishmas, shuning uchun o'quvchilarning 70%i xonadonlarda yashardi. Jihozlangan o'quv xonalari yo'q, kutubxona esa nihoyatda qashshoq bo'lgan. Bichish va savatsozlik ustaxonalari ishlab turgan, 80% o'quvchi qizlar maxsus kiyim bilan ta'minlangan, choyshab va yostiq jildlari yetishmasdi. Qolgan o'quv yurtlari, xususan chekka joydagilar, moddiy jihatdan yanada xarob bo'lib, asosan o'quv sinflari kam edi. Toshkentdagi maorif institutlari ham oziq-ovqat va yoqilg'i bilan yaxshi ta'minlanmasdi. O'tin ajratilsa ham uni tashish uchun na transport, na mablag' topilar edi.

Pedagogika kurslari uch yilga mo'ljallanib, ular qoshida tayyorlov sinflari ochilgan. Kurslarga kiruvchilar o'rta maktabning 5-sinfi ma'lumotiga ega bo'lishi kerak edi. Texnikum o'qituvchi tayyorlashda eng maqbul o'quv yurti deb topildi. 1922-yili bir qator ikkinchi bosqich maktablari, shuningdek, uch yillik pedagogika va o'qituvchilar kurslarini pedagogika texnikumlariga aylantirishga mo'ljallandi.

Pedagogika texnikumlari to'rt yillik o'quv yurti bo'lib, ularga yettinchi sinf bitiruvchilari qabul qilingan. Texnikumni tugatgan, har yili qayta tayyorlash kursini o'tagan (eng muhimi, ijtimoiy-siyosiy fanlar bo'yicha) o'qituvchilar 6-7-sinflarda bimalol dars bera olardi. Dastlab texnikumlarda faqat rus tilida dars olib borildi, so'ngra o'zbek, qirg'iz (qozoq), tatar va Toshkentdagi mahalliy yahudiy maorif institutlari (maorif institutlarida tayyorlov guruhlari bo'lib, shunga ko'ra, yettinchi sinfni tugatmaganlar ham bunga kiraverar edi) texnikumlarga aylantirildi. Mahalliy millat bitiruvchilari tayyorlash uch, besh yillik pedagogika bilim yurtlari tashkil etildi, ularga boshlang'ich maktabning 4- va hatto 3-sinfini tugatganlar ham qabul qilindi. Ilgari mahalliy aholidan o'qituvchi tayyorlagan kurslar, avvalgi tarkibdagi bilim yurtlari yoki texnikumlar kabi pedagogika o'quv yurtlari asta-sekin pedagogika bilim yurtlariga aylantirildi.

Mahalliy millatlardan o'qituvchilar tayyorlashni tezlatish maqsadida 1923-yili Toshkentda 1200 talabaga mo'ljallangan 10 ta pedagogika texnikumi va bilim yurti ochildi. Texnikumlarning moddiy ahvoli nihoyatda qashshoq bo'lganligini ta'kidlash joiz. Xo'jalik zarurati uchun nihoyatda kam mablag' ajratilar, u ham har doim berilavermas edi. Binolar ta'mirlalab bo'lib, yoritish, isitishga mablag' yo'q edi. Berilgan mablag'lar ehtiyojni mutlaqo qondirmasdi. Bunday qiyinchiliklarga qaramay, pedagogika bilim yurtlari va texnikumlari soni ko'payaverdi. 1922/23-o'quv yilida respublikada 1685 talabani o'z ichiga olgan 14 ta pedagogika bilim yurti bo'lib, ularda 322 o'qituvchi va 195 texnik xodim xizmat qilgan. O'qituvchilar tayyorlash ishi tashkiliy va sifat jihatdan yil sayin

takomillashdi. Respublikada dastlab Rossiya markaziga xos tinglovchilar tayyor-  
garligi yaxshiroq bo'lgan, pedagogika o'quv yurtlaridan ko'r-ko'rona andoza  
olindi. Vaholanki, mahalliy sharoitga moslashtirish uchun ulami muayyan darajada  
o'zgartirish, mahalliy aholi yoshiga, soniga mos ravishda, haqiqiy imkoniyatlar  
bilan chog'lashtirish kerak edi. 1922-yili bu sohada burilish yasaldi. Bu davrga  
kelib asosan maorif instituti va pedagogika bilim yurti kabi ommaviy pedagog  
xodimlarni tayyorlovchi o'quv yurtlari bo'lib, ulardan birinchisi mutaxassis  
o'qituvchilar yetkazib bergan bo'lsa, ikkinchisi boshlang'ich maktab uchun muall-  
limlar tayyorladi. Maorif institutlari ham birinchi, ham ikkinchi bosqich maktab-  
larida dars bera oladigan o'qituvchilar tayyorlashi lozim edi. Pedagogika bilim  
yurtlari aslida boshlang'ich maktabda ishlash uchun ixtisoslashgan o'qituvchilar  
tayyorlashga mo'ljallangan ikkinchi bosqich maktabning o'zi edi. 1923-yili  
bunday o'quv yurtlari uchun normativ talablar ishlab chiqildi, o'quv rejalari tuzil-  
di. 1923-yili pedagogika ta'limining yangi tizimi shakllandi.

Maorif institutlari yuqori malakali o'qituvchilar yetkazib berdi va mahalliy  
millatga mansub yoshlarni oliy o'quv yurtlariga tayyorladi. Shu bilan birga ular  
har bir millatning g'oyaviy pedagogika markazi ham bo'lib qoldi. Pedagogika  
bilim yurtlari, o'rta maxsus o'quv yurtlari birinchi bosqich milliy maktablari  
uchun xodimlar tayyorladi. 1923-yilda pedagogika o'quv yurtlarining muayyan  
turlari vujudga keldi. Avvalo, har bir viloyatdagi aholi millatiga qarab o'sha tilda  
o'qitiladigan pedagogika bilim yurti bo'lishi kerak edi. Bundan tashqari, Tur-  
kistonning har bir yirik millati uchun kamida bittadan o'quv yurti bo'lishi lozim  
edi. TASSR dagi 14 ta o'quv yurti orasida yettita maorif instituti, beshta pedagogi-  
ka bilim yurti va ikkita pedagogika texnikumi ishlab turdi. Ulardan faqat bittasi  
Nikolskiy qishlogidagi pedagogika texnikumi rusiy zabon, aralash bo'lib, qolgan-  
lari muayyan millat maktablari uchun o'qituvchi tayyorladi. Oltita o'quv yurti  
o'zbek maktablariga, beshtasi-qozoq (ilgari ular qirg'iz deyilar edi) maktablari,  
ikkitasi-turkman, bittadan mahalliy yahudiy va turk-tatar maktablari uchun o'qi-  
tuvchilar tayyorladi.

Toshkentdan tashqari, Almati, Qo'qon, Samarqand, Chimkent, Poltorask (Turkmaniston) kabi shaharlarda o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatdi. Shu bilan birga har bir viloyatda, keyinroq uyezdda o'z pedagogika bilim yurtiga ega bo'lish vazifasi qo'yildi. Ammo mavjud tarmoqlar, ayniqsa, viloyatlar mutaxassis pedagoglar bilan kam ta'minlanganligi sababli, bu vazifani hal etilishining iloji bo'lmadi. Maorif xalq komissarligining pedagoglar tayyorlash bo'limi xodimlar tayyorlash siyosatini har doim ham to'g'ri olib bormadi, viloyat pedagogika bilim yurtlari va maorif institutlariga aksariyat hollarda imkonini topib markazga qochishni mo'ljallab qo'ygan rusiyzabon o'qituvchilar yubonilar edi. Maorif xalq komissarligining XKSga ma'ruzasida (1923-yil noyabr) "Navbatdagi vazifa viloyatlardagi maktablarda dars berishga yevropalik o'qituvchilarni yuborish", deb to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilgan. Maorif xalq komissarligida ta'kidlanishicha, agar "barcha fanlar faqat rus tilida o'qitilsa", maorif institutlarining tayyorlov sinflaridagina ona tilida o'qitilsa, asosiy sinflarda ona tilida faqat ona tili darsi olib borilsa, bu holatni maqbul deb bo'lmaydi, negaki bu milliy boshlang'ich maktablarni joriy etishga monelik qiladi. Xujjatda maorif institutlari ona tilida o'qitishga tez orada o'tmasligi aytilgan edi. Garchi, pedagogika bilim yurtlarida o'qish ona tilida olib borilsa-da, lekin tayyor atama va darsliklar yo'qligi sababli qator qiyinchiliklar kelib chiqardi. Shunga qaramay, pedagogika bilim yurtlarida maorif institutlariga nisbatan ona tilida dars berishga o'tish va milliy "maktablar uchun malakali o'qituvchilar tayyorlash imkoniyati kengroq edi". 1923-yili 4 ta o'quv yurtida qirg'iz (6 kishi), o'zbek (7 kishi), turk-tatar (11 kishi) maorif institutlari va Sirdaryo pedagogika bilim yurtida 24 nafar o'qituvchi tayyorlandi.

Respublikadagi og'ir moddiy ahvol tufayli talabalarning ko'pchiligi o'qishni tashlab ketib qoldi va natijada, bitiruvchilar nihoyatda kam bo'ldi. Ikki yildan keyingina bitiruvchilar soni ko'payib, bir necha yuz kishidan ortib ketdi. Shundan keyingina milliy maktablarni malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi. O'qituvchilar tayyorlash sifatiga ham o'zgarish ro'y berdi. 1921/22

o'quv yillaridagi og'ir ahvolda mashg'ulot boshlagan dastlabki talabalar darslarni yuzaki, ancha uzilishlar bilan tinglardilar. 1923- yildan boshlab ta'lim ancha jiddiy yo'lga qo'yildi. 1924-yil boshlarida yettita maorif instituti va pedagogika texnikumlarida turli millatlarga mansub bo'lgan 1360 talaba o'qir edi, ularning orasida qozoqlar- 400, o'zbeklar - 330, tatarlar-154, mahalliy yahudiy- 153 kishini tashkil etar edi. 1924- yili ochilgan Tojik maorif institutining boshlang'ich guruhga 60 kishi, ikkinchi guruhga 40 kishi qabul qilindi. Maorif institutiga o'qituvchi yoki mehnat stajiga ega bo'lgan (ishchi, dehqon va ularning bolalari) tojiklar qabul qilindi, ayollar faqat ishchi yoki dehqon oilasidan bo'lishi kerak edi. Barcha qishloq aholisi uchun ham shunday yo'l tutildi. Maorif institutiga 14 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar qabul qilindi, boshlang'ich guruhga kirish uchun alifbo va sanoqni bilishning o'zi yetarli edi. Ikkinchi guruhga kiruvchilar ona tilidan to'la savodli, to'rt amalni bilishi va boshlang'ich siyosiy bilimi bo'lishi lozim edi. Respublika bo'yicha 60 o'rin quyidagicha taqsimlandi: Samarqandga -20, Farg'onaga -18, G'arbiy Pomirga - 7. Buxoro XSR ga 15 ta joy berildi.

Pedagogika bilim yurtlarini mustaxkamlash asnosida malakali ayol pedagog xodimlar tayyorlashga alohida e'tibor berildi. 1923-yili to'rt yillik o'zbek ayollar maorif institutida birinchi bitiruv kechasi bo'ldi. Institutni yetti nafar o'zbek ayoli tugatib, ularning barchasi milliy maktablarga o'qituvchi qilib yuborildi. O'zbekiston ayol o'qituvchilari yirik guruhining ma'rifatli qilishda katta rol o'ynadi. Bitiruv kechasida ularni TASSR Maorif xalq komissari Olikov tabriklad.

1924-yili Toshkentda o'zbek, qirg'iz (qozoq), turk-tatar maorif institutlarida bitirish marosimi bo'ldi. Bitirib chiqqan 24 o'qituvchidan 4 nafari ayollar edi. Ushbu o'qituvchilar darhol maktablarga ishga jo'natildi. 1920-yili Farg'onada ochilgan viloyat ikkinchi bosqich birinchi o'zbek maktabi asosida tuzilgan.

Qo'qon viloyat texnikumi dastlabki bitiruvchilarni chiqardi. O'sha paytda viloyat markazi Farg'onadan Qo'qonga ko'chishi munosabati bilan butun



mulkini olib maktab jamoasi ham eshelonda viloyat markaziga ko'chib o'tdi. Bu yerda har yili o'qituvchilar kursi ishlab turdi.

1924-yili to'rt yillik o'qishdan keyin birinchi bitiruvchilar chiqarildi. Sobiq Farg'ona ikkinchi bosqich maktabi o'quvchilari shu bitiruvchilarining asosini tashkil qildi. Darhol maktablarda ish boshlagan texnikum bitiruvchilari keyinchalik O'zbekistan oliy o'quv yurtlarini bitirishdi, taniqli olim, professor, oliy o'quv yurti o'qituvchilari bo'lib yetishdilar. Biologiya fanlari doktori, akademik T.Z.Zohidov, texnika fanlari doktori Yu.Toshpo'latov, professor R.Otajonov va boshqalar shular jumlasidandir.

K.Libknext nomli maktab negizida 1921-yili tashkil etilgan Nikolskiy qishlog'idagi pedagogika texnikumi respublikada ta'lim va tarbiyaning yangi shakllarini izlashning o'ziga xos uslubiy markazi bo'lib oldi. 1921-22 o'quv yili boshlarida unda 38 o'quvchi bo'lib, yil oxirida ularning soni 54 taga yetdi. Birinchi yildayoq ushbu texnikumda ikki rus bo'limi va tayyorlov milliy guruhi ishlay boshladi, talabalarning asosiy qismini o'sha maktab o'quvchilari tashkil etdi. Milliy guruhda mahalliy millat vakillaridan (qozoq, qirg'iz, tatar) 13 kishi shug'ullandi. K.Libknext nomidagi maktab, o'z mohiyatiga ko'ra, yakdil mehnat maktabi ishlarini tatbiq etish bo'yicha tajriba markazi bo'lib qishloq xo'jaligi ishlarini o'rgatuvchi maskan hisoblandi. Shuning uchun, uni bitiruvchilar yaxshi tayyorlangan o'qituvchi bo'lishlariga ishonch hosil bo'lardi. Bu omil uning negizida pedagogika texnikumi barpo etishga asos bo'ldi. Tub millatlardan o'qituvchi tayyorlash uslubi uzig xos edi. Qozoq, o'zbek, tatar yoshlari kichik rus sinflariga yo'llandi, ular rusiyzabon tengdoshlari bilan birga rus o'qituvchilaridan ta'lim olar edilar. 1922/23 o'quv yili oxiriga kelib Nikolskiy pedagogika texnikumida 65 tinglovchidan 10 nafarini mahalliy millat vakillari tashkil etdi.

Qishloq boshlang'ich maktab o'qituvchilarining asosiy qismini milliy maorif institutlari tayyorlar edi, ammo ularning o'sha davrdagi tarmog'ini yetarli deb bo'lmas edi. Barcha millat maktablari uchun o'qituvchilar yetishmasdi, turkman

ayollar maktabi uchun o'qituvchilar hech yerda tayyorlanmadi, mahalliy yahudiy maktabi uchun o'qituvchilar faqat boshlang'ich to'rt sinfga tayyorlandi. Qirg'iz (qozoq) va tatar maorif institutlari 1924-yildagina bitiruvchilarni chiqardi. Bunda, baribir umumta'lim maktablariga o'qituvchilar yetishmay, asosiy o'qituvchilarning malakasi past bo'lib qolaverdi. Ko'pgina qishloq o'qituvchilari ish uslubi, tarbiya tamoyillari, o'quv dasturlari haqida hatto tasavvurga ham ega bo'lmay turib o'quvchilarga savod o'rgatdilar. Shuning uchun Maorif xalq komissarligining pedagogika ta'limi bo'limi muallimlarning pedagogik malakasini oshirish masalasini kun tartibiga qat'iy qo'ydi. Bu sohada o'quv dasturini amaliyotga tatbiq etish va o'qituvchilarni ekspertizadan o'tkazish bosh yo'nalish bo'lib qoldi. Respublika miqyosida o'tkazilgan bunday ekspertiza natijalari matbuotda muntazam yoritib borildi. O'qituvchilarni ekspertiza qilish Turkiston Sovetlari XI syezdining xalq ta'limi yuzasidan qabul qilingan qarorlarini hayotga tatbiq etish natijasi bo'lib, muallimlarning ixtisosiy tayyorgarligini belgilabgina qolmay, balki ularni faol ijtimoiy hayotga jalb etish masalasini ham qo'ydi. 1922-yildan boshlangan ekspertiza respublika Maorif xalq komissarligiga viloyatlardagi maktablar tarmog'i hisob-kitobi, o'quvchilar miqdori va o'qituvchilar shtatini tartibga solish imkonini berdi. Barcha maktablar, maorif institutlari, texnikum va bilim yurtlarining pedagog xodimlari ekspertizadan o'tkazildi. Universitetning professor-u.o'qituvchilarigina bundan mustasno edi. Viloyatlarda ekspertiza o'tkazish uchun ko'chma sessiyalar tashkil etildi. 1923-yil 1-yanvardan boshlab biron muallim ekspertizadan o'tmagan bo'lsa, u darsga qo'yilmadi. Bu tadbir garchi hechqanday tayyorgarligi bo'lmagan shaxslarni o'qituvchilik ishiga yaqinlashtirmaslik imkonini bergan bo'lsa-da, lekin joylardagi milliy maktablarda muallimlar tanqisligi sababli talab biroz yumshoqroq bo'ldi.

Shu yillarda Toshkentda faoliyat ko'rsatgan Turkiston Sharqshunoslik instituti va Turkiston Davlat universiteti ikkinchi bosqich maktablari, texnikum va maorif institutlari uchun yuqori malakali o'qituvchilar tayyorladi. Sharqshunoslik instituti, birinchidan, Sharq xalqlari tarixi, tili, madaniyatini o'rganuvchi

ilmiy xodimlar, ikkinchidan, respublika mahalliy aholisining tili, turmush tarzi, milliy ruhiyati, odati, madaniyati, tarixini yaxshi biladigan ma'muriy, idora xodimlarini tayyorlash kabi ikki yo'nalishdagi malakali mutaxassislar yetkazib bera boshladi. Binobarin, Sharqshunoslik instituti, dastlabki rejaga ko'ra, o'qituvchilar tayyorlashga mo'ljallanmagan edi, ammo uning Ichki ishlar xalq komissarligi, Tashqi savdo xalq komissarligi, Tashqi ishlar xalq komissarligi singari respublika bosh idoralari bo'yicha tashkil etilgan bo'limlari qatorida Maorif xalq komissarligi bo'yicha ochilgan bo'limi ham bor edi. Bu, bir tomondan to'g'ri, negaki Sharqshunoslik instituti o'qituvchilari rusiyazabon muallimlar uchun kurslarda ma'ruza tashkil etardilar. Bitiruvchilar tarix, adabiyot va etnologiya-lingvistika sohalari bo'yicha ixtisoslikka ega bo'lardilar. Institutda o'zbek, qirg'iz (qozoq), fors, arab va boshqa sharq tillaridan darslar mavjud edi. Dasturdan sharq tillari umumiy sharqshunoslik va umumta'lim fanlari, shuningdek, har bir bo'lim uchun maxsus fanlar o'rin olgan edi.

1923-yil sentyabrda "Turkiston haqiqati" gazetasida tub aholi uchun ona tilidan yuqori malakali pedagog-o'qituvchilar tayyorlash maqsadida joriy o'quv yilida Turkiston Sharqshunoslik instituti qoshida pedagogika bo'linmasi ochilishi haqida e'lon berildi. Bu bo'linmalarga maorif institutlarining katta guruh (3-asosiy sinf) o'quvchilari qabul qilinishi mumkin edi. Shu o'quv yilida TShI ga qirg'iz (qozoq) maorif instituti va o'zbek institutidan yetti nafardan, Turk-tatar institutidan besh nafar kishi shu bo'linmaga o'kazildi. Pedagogika bo'linmalari faqat ona tili mutaxassisi emas, balki mehnat maktablari uchun umumta'lim o'qituvchilari ham tayyorlashga mo'ljallangan. Institut o'quv dasturi akademik tarzda tuzilgan bo'lib, unda 14 ta tarix va geografiya, to'rtta madaniyat tarixi, uchta falsafa, 16 ta filologiya va ikkita ijtimoiy fanlar guruhlari mavjud edi.

RSFSR Maorif xalq komissarligining Turkistonda oliy maktabni isloh qilish bo'yicha qaroriga binoan Sharqshunoslik instituti 1924-yili Turkiston Davlat universitetiga sharqshunoslik fakulteti sifatida qo'shib yuborildi. Shu vaqtdan to 1927-yilgacha universitet O'zbekistonda yagona oliy o'quv yurti bo'lib qoldi.

1921-yili Turkiston Davlat universitetiga Temiryazev nomidagi maorif instituti qo'shilganidan keyin pedagogika fakulteti vujudga keldi. Shundan buyon u bir necha marta o'zgardi. Pedagogika fakultetiga Temiryazev nomli Maorif institutidan tashqari, fizika-matematika va tilshunoslik bo'limlari, keyinroq sharqshunoslik bo'linmasi ham qo'shildi. Ammo bitiruvchilarning aksariyati muallim bo'lib ishlashga jo'natildi. Fizika-matematika bo'limining umumta'lim qismi, shuningdek, kimyo, fizika kabi ixtisoslashgan bo'limlari ham pedagogika yo'nalishiga ega edi. O'tkazilgan qator tarkibiy o'zgarishlar natijasida 1924-yili faqat ijtimoiy fanlar, tibbiyot, astronomiya, fizika-matematika va muhandislik-melioratsiya kabi besh fakultetga talaba qabul qilindi. Pedagogika fakulteti garchi mustaqil faoliyat ko'rsatmasada, fizika-matematika va ijtimoiy fanlar fakultetlarida asosan ikkinchi bosqich maktablari, texnikum, bilim yurti va oliy maktablar uchun pedagog xodimlar tayyorladi.

O'qituvchilarni ixtisosiy tayyorlash tizimidagi qarama-qarshiliklar sovet maktabida yaqqol namoyon bo'ldi. Shu bilan birga pedagogik o'quv shaklining kengayishi o'qituvchilar ixtisosiy tayyorgarlik darajasining o'sishiga imkon yaratganini ta'kidlash joiz. Ularning ko'pchiligi pedagogika o'quv yurtlarini tugatganidan keyin qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qib, ajdodlar merosiga murojaat qilib, zarur tajribani to'plashga muvaffaq bo'lishdi. Natijada, o'qituvchilarning ixtisosiy sifati mezonini aniq belgilash va yaxshi nazorat qilish imkoni tug'ildi, sovet maktab qurilishining nozik tomoni bo'lgan qishloq maktablarida ham ijobiy o'zgarishlar kiritishga muvaffaq bo'lindi. 1923-yili qishloq maktablari o'qituvchilari bilimiga eng kerakli talablar ishlab chiqildi. Ular quyidagilardan iborat edi: ona tilida o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda qisqa va lo'nda qilib savodli talqin etish; arifmetika -butun sonlar bilan to'rt amalni bajarish, o'nli va oddiy kasrlar bilan tanishuv; geografiya yurt haqidagi oddiy tushunchalar; siyosiy savod sovet tuzumi va Konstitutsiyasi haqida tushunchaga ega bo'lishdi. Bu talabnomani qabul qilar ekan, Maorif xalq komissarligi har qanday o'qituvchi shu darajada bo'lishini

bilar; qishloq o'qituvchilari bu talabga javob berish uchun o'z bilimlarini oshirishlari zarur edi. Shunga qaramay, bunday dasturning yuzaga kelishi qishloq o'qituvchilarining bilimlarini oshirishda muhim omil bo'ldi. Ona tilida o'quv qo'llanmalari bo'lmagan bir sharoitda o'qituvchilarning kundalik turmushdagi misollar bilan saboq bera olishi katta ahamiyat kasb etdi. Ayni vaqtda barcha maktablarga yetkazib berilgan dastur o'qituvchilarga ixtisoslik bo'yicha o'z ustida aniq va maqsadga muvofiq ravishda ishlash imkonini berdi.

O'quv yurtlaridagi o'qituvchilar soni bilan borliq murakkabliklarga qaramay, ular yangi sovet ziyolilari o'rtasida ko'pchilikni tashkil etdi. 1924-yili Maorif xalq komissarligi o'quv yurtlarini 1523 o'qituvchi bitirdi, ularning deyarli yarmi komsomol a'zosi bo'lib, 415 nafari dehqon va ishchilar, 5/6 qismi -mahalliy millat vakillari edi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, 1923 -yildagi aholi ro'yxati ma'lumotiga ko'ra, 109 162 aholisi bo'lgan Tashkent shahrida 463 bugalter, 288 shifokor, 303 artist va rassom, 158 muhandis va texnik, 39 yozuvchi va jumalist bor edi. Shunga ko'ra, o'qituvchilar aholini ro'yxatga olish ishlarida yoki respublika tumanlariga yuboriladigan har xil ommaviy tadbirlarda asosiy kuch bo'lib qoldi. Ammo o'qituvchilarning bunday tadbirlar o'tkazishga jalb qilinishi maktab va boshqa o'quv yurtlariga nihoyatda qiyinchilik tug'dirdi. Muallimlar oylab davom etadigan tadbirlarga jalb etilardi. Bu esa maktablardagi mashg'ulotlarni to'xtatib qo'yishga, o'quv dasturlarining bajarilmasligiga olib keldi, chunki o'qituvchilar yetishmasligi tufayli tadbirlarga jalb etilganlarni o'mini hech kim to'ldira olmasdi. Aytish kerakki, bu holdan tashvishga tushgan Maorif xalq komissarligi rahbariyati o'qituvchilarni turli partiya-sovet tadbirlariga jalb etishni cheklash iltimosi bilan Turk MIQ ga murojaat qildi. Lekin bunday ahvol butun mamlakatdagi barcha maktablarda uzoq yillar davom etib keldi.

Shunday qilib, tadqiq etilayotgan davrda o'qituvchilar tayyorlash jarayoni ziddiyatli kechdi. Marksizm ta'limotiga asoslangan mamlakat siyosiy rahbariyati sovet maktabiga, avvalo, kommunistik tarbiyaning muhim g'oyaviy o'chog'i,

"Oktyabr inqilobi g'oyalariga"so'diq yoshlarni shakllantirish vositasi sifatida munosabatda bo'ldi. Bu bosh vazifani yangi maktablar amalga oshirishi kerak edi. U yoshlarni sovet ijtimoiy hayotida faol ishtirok etadigan qilib tayyorlashi, ularda sinfiy qadriyatlar iyerarxiyasiga qaratilgan,asriy milliy ma'naviyat ildizlaridan yulib olingan, milliy manfaatlarga yot bo'lgan dogmatik tafakkurni shakllantirishi lozi edi. Shunga asosan yuqori idoralar o'qituvchilar tanlashda sinfiy mansubligiga alohida e'tibor berdi.Keksa o'qituvchilar obdon tekshiruvdan o'tkazilib ulardan zarur hollardagina vaqtincha foydalanildi.Sovet maktabi vujudga kelgan dastlabki yillarda qisqa kurslar uni muallimlar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Ana shu kurslarda qisqa vaqt mobaynida birinchi bosqich maktablari uchun ko'plab o'qituvchilartayyorlandi. Ammo tayyorlangan muallimlar saviyasi nihoyatda past edi. Barcha o'qituvchilar saviyasi yuqori, malakali bo'lishi uchun muntazam pedagogika bilim yurtlari tashkil etish davr talabi bulib qoldi. Maorif institutlari, pedagogika texnikum va bilim yurtlari, o'qituvchilar institutlari xuddi shu davrda vujudga kela boshladi. Bular aslida yetti yillik umumta'lim maktablari negizidagi o'rta pedagogika bilimi beruvchi to'rt yillik o'quv yurtlari edi.

### **§ 1.3. O'zbek xotin-qizlarning ta'lim tizimiga jalb qilinishi.**

1917-yil oktyabr voqealari so'ng o'zbek xalqi ijtimoiy hayotida chuqur o'zgarishlar yuz berdi.Sovet hukumati o'zining rasmiy siyosatida o'zbek xalqining yangi ijtimoiy tuzumga o'tganligi va uning oqibatida tub burilishlar boshlanganligini e'tirof etdi. Ushbu o'zgarishlardan biri - jamiyat taraqqiyotidagi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lgan ta'lim tizimida yaqqol ko'rindi.

Sovet hukumatining O'zbekistondagi 20-30 yillardagi ta'lim borasida, ayniqsa xotin-qizlar savodxonligini oshirish borasidagi siyosati o'zbek xotin-qizlari hayotidagi tub o'zgarishlarga olib keldi. Bu masalani boshqa jihatiga qaraydigan bo'lsak, sobiq sho'ro hukumati sovet sharqi ayollarini ozod qilishda milliy urf-odat va an'nalarni hisobga olmasdan shoshma-shosharlik bilan amalga

oshirdi. Shunga qaramay ushbu yillarda xotin-qizlar ta'limi masalasida ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi, ya'ni yangi zamonaviy maktab binolari qurilishi va dunyoviy fanlarning o'qitilishi xotin-qizlarning faolligi oshirish bilan bog'liq edi.

O'zbek xotin-qizlari hayoti haqida yoritib boruvchi "Yangi yo'l" jurnalida qishloq maktabi haqida, Moskvada chiqadigan "Kommunistka" jurnali o'zbek ayollari uchun ta'lim-tarbiya holati haqida xabar berib turardi. 1920-yillarda shahar o'zbek qizlari uchun davlat tomonidan ta'minlangan boshlang'ich maktablar soni sezilarli darajada ko'paygan bo'lsa, qishloq maktablari soni esa 1930-yillarga kelibgina ko'paya boshlagan. 1926-27 yillardagi maktablarni ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, Chimishova juda saxiylik bilan maktab yoshidagi o'zbek qizlarining 15% maktablarda o'qishini aytdi [uning raqamlaridan foydalangan holda hisob-kitob shuni ko'rsatadiki, o'zbek qizlarining 7 foizi boshlang'ich maktablarda o'qiydi]. Shaharlarda maktab aholisining 40% ayollar edi; qishloq joylarida o'quvchilarning atigi 5 foizini ayollar tashkil etgan.

1917-1920 yillarda bir qancha hukumat qarorlari va dekretlari e'lon qilinib, ularda maorif tizimini yangicha asosda ishlab chiqish belgilanib berildi. 1918-yilda Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi "Turkiston xalq ta'limi tashkiloti to'g'risida"gi nizomni tasdiqladi, unda o'quvchilarning ona tilini hammaga bepul o'qitish, maktablarni dunyoviy lashtirish kerak edi. Bu qonundan keyin 1920-yillarda katta yoshdagi aholi o'rtasida savodsizlikni yo'q qilish kampaniyasi boshlandi. 1926-yilda savodxonlik darajasi uch foizdan ko'p bo'lmagan ayollarga alohida e'tibor qaratildi. O'rta Osiyoda kechki va "likbez" (savodsizlikni tugatish) maktablari tashkil etilgan. 1930-yilda Markaziy Komitet O'zbekiston Kommunistik partiyasi "Bolalar va o'smirlar uchun umumiy majburiy ta'limni joriy etish to'g'risida" ni qabul qilib, bolalarning maktabga kunduzgi qatnashishini belgilab berdi.

Xotin-qizlarni ta'lim tizimiga tortishda dastlabki qadam xotin-qizlar savodsizligini tugatish maktablarini tashkil qilish bilan boshlandi. Xususan, shunday maktablarning birinchisi 1917-yil Toshkentning Beshyog'och tumanida

Bashorat Jalilova tomondan tashkil etildi. 1920-yilga kelib bunday maktablar barcha yirik shaharlarda ochila boshladi.

Samarqand viloyatida ham xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikni tugatish ishlari XX asrning 20-yillari o'rtalaridan keng ko'lamda boshlab yuborildi. Viloyat xalq maorifi bo'limi 1925-yilning qishida Samarqandning eski shahar qismida musulmon ayol o'qituvchilarni tayyorlovchi 2 yillik maktab ochishni rejalashtiradi. Tashkil etilgan ayollar maktabi va savodsizlikni tugatish maktablarida ayol o'qituvchilarga ehtiyoj bor edi. Shu sababli viloyatda qisqa muddatli ayol o'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari ochildi. 1926-yilda bu kurslarda 60 nafar xotin-qiz o'qidi.

Samarqand viloyatida xotin-qizlar savodsizligini tugatish maktablarida o'quvchi xotin-qizlar soni yilma-yil o'sib borgan. Masalan, 1922/23 o'quv yilida maktabda 35 qiz o'qigan bo'lsa, 1923/24 o'quv yilida 119 ta, 1924/25 o'quv yilida 472 nafar, 1926-yilning 1-yanvariga kelib 546 kishi ularda o'qigan. 1925-yilning yoziga kelib Samarqand viloyatida xotin-qizlar uchun 35 ta savodsizlikni tugatish maktablarini ochish rejalashtiriladi.

1924/25 o'quv yilida viloyat bo'yicha 5000 kishi savodsizlikni tugatish maktablarini bitirib chiqdi. Bu paytga kelib savodsizlikni tugatish maktablariga jalb qilinganlarning soni 7000 kishidan oshib ketdi. 1926/27 o'quv yilida viloyatda o'zbek xotin-qizlari uchun 10 ta yangi savodsizlikni tugatish maktablari ochilib, ularda 189 kishi o'qigan bo'lsa, umumiy ta'lim maktablari, 5 oylik kurslarda 100 kishi, bir yillik kurslarning 3 ta guruhida 120 kishi, meditsina texnikumida 45 kishi o'qidi.

1927/28 o'quv yilida "ozodlikka chiqqan" xotin-qizlar uchun 12 ta savodsizlikni tugatish maktablari ochildi. 1929-yilning 1-dekabriga kelib, Samarqand shahridagi I bosqich maktablari 2301 nafar o'zbek qizlarini va 2717 nafar tojik qizlarini qamrab olgan bo'lsa, Samarqand viloyati bo'yicha 7474 nafar o'zbek va 10097 nafar tojik qizlari maktablarga qamrab olingan edi. Viloyatdagi II bosqich maktablarida mahalliy millat vakillaridan bo'lgan 2986 nafar qiz o'qidi.



1930/31 o'quv yilida Samarqand shahar kasaba uyushmasi va madaniy-oqartuv muassasalari hisobidan 25 ta savodsizlikni tugatish kurslari ochilib, ularda 817 kishi, shu jumladan 334 xotin-qiz o'qidi. Shu o'quv yilida bir yillik o'smirlar maktabida 13–14 yoshdagi qizlardan shaharda 3838 nafar, qishloqda 9149 nafar o'quvchi o'qidi. Shunday qilib, bir yillik o'smirlar maktabida o'qigan 32362 kishidan 12988 nafari qizlar edi. Chalasavodlilar maktabida shu o'quv yilida shahardagi 65 ta guruhda 1230 nafar, qishloqdagi 319 ta guruhda esa 5670 nafar qizlar o'qigan.

1931-yilning 1-yanvarigacha Samarqand viloyati bo'yicha savodsizlikni va chalasavodlilikni tugatish kurslari va I bosqich maktablari 200842 nafar o'quvchini qamrab olgan edi. Shu yildagi aholini ro'yxatga olish ma'lumoti bo'yicha Samarqand shahrida 8 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning soni 18396 nafarni tashkil etib, ulardan 8360 nafari qizlar bo'lib, shundan 13431 nafari savodli va 4965 nafari savodsiz bo'lgan.

Ushbu yillarda "millionlar shartnomasi" jarayonini amalga oshirishda O'zbekistonda xotin-qizlarni ma'lumotli qilishning turli usullari qo'llanildi. "Millionlar shartnomasi" xotin-qizlar yuzini ochish bo'yicha O'zbekiston va Turkmaniston respublikalari o'rtasida tashkil qilingan sotsialistik musobaqa bo'lib, u shunday nom bilan tarixga kirgan edi.

1932-yil boshida viloyatdagi 38 ta umumta'lim maktablarida xotin-qizlar uchun savodsizlikni va chalasavodlilikni tugatish kurslari ochildi. Shu yili xotin-qizlar uchun hammasi bo'lib 271 ta savodsizlikni va chalasavodlilikni tugatish maktablari faoliyat ko'rsatdi. Ularda 131 nafar xotin-qiz o'qituvchi ishlagan bo'lib, ular orasida M.Jo'raeva, K.Azizova, D.Mavlonova, X.Niyazova, M.Fayzieva va boshqalar bor edi.

1932-yilning 20-mayiga kelib viloyatdagi savodsizlikni tugatish maktablari 10020 nafar xotin-qizni qamrab oldi, holbuki bu miqdor "Millionlar shartnomasi" ning nazorat raqami bo'yicha 16700 kishi bo'lishi kerak edi. Chalasavodlilikni

tugatish kurslari 4900 xotin-qizni qamrab olgan, nazorat raqamlari bo'yicha esa 5500 xotin-qiz qamrab olinishi kerak edi. Viloyatning barcha tumanlarida savodsizlikni tugatish maktablarida 216 ta guruh tuzildi. Ularda nazorat raqamlari bo'yicha 445 nafar o'qituvchi ishlashi o'miga 209 nafar o'qituvchi mehnat qildi.

1931/32 o'quv yilida 5771 shaharlik (samarqandlik) va 4595 dehqon o'zining chalasavodligini tugatgan bo'lsa, 1933-yilga kelib Samarqand shahrida 12331 xotin-qiz, qishloqda 14827 xotin-qiz chalasavodligini tugatish maktablarida o'qidi. Shahar va qishloqdagi 8 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan qizlardan 30 mingdan ziyodi umumiy majburiy ta'limga qamrab olindi.

O'zbekistonda o'zbek va tojik qizlarini sovet maktabiga jalb etishning asosiy usullaridan biri ayollar maktablarini ochish edi. Qo'shma ta'lim faqat ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qozoqlar va qirg'izlar o'rtasida olib borilgan, ammo bu erda ham maktablarda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda ancha kam edi. Mahalliy millat qizlarini maktablarga ommaviy ravishda jalb qilish 1923-24 o'quv yilida Turkiston Xalq ta'lim komissarligi organlari qiz bolalarni ro'yxatga olishdan boshlangan. Ushbu yil maktablarda 1786 nafar mahalliy millat qizlari, shundan 1344 nafari o'zbek, 242 nafari qozoq, 86 nafari turkman, 72 nafari tojik, 50 nafari taman qizlari tahsil olgan. Bundan tashqari o'lkada milliy ozchilikni tashkil qiluvchi tatarlar, yahudiylar, boshqirdlar, forslar va boshqalar 1139 nafarni tashkil etgan.

1923/24 o'quv yilida o'zbek qizlari uchun Sirdaryo viloyatida 14 ta, Farg'naviloyatida 12 ta, Samarqandda 4 ta xotin-qizlar maktabi ochildi.

Majburiy ta'limni joriy qilish oldidan qizlar maktabga juda kam miqdorda jalb qilingan. 1927/28 o'quv yilida maktabga ro'yxatga olish davrida o'quvchilar umumiy sonidan 133,4 ming kishidan 34,7 ming nafari qizlar edi. Bu esa 26%ga teng degani edi. Qishloq maktablarida 6 ming nafar qiz o'qigan, bu umumiy o'quvchilar soniga nisbatan 11,5%ni tashkil qilgan. 1938/39 o'quv yilida maktablarda o'quvchi qizlar soni 429 ming kishini, ya'ni 42,7% ini, qishloqlarda qizlar soni 337 ming, ya'ni umumiy qishloq maktablaridagi o'quvchilar sonining 41,7%ini tashkil qildi.

Respublikada 1925-1926 o'quv yilidan erkaklar maktablari qoshida xotin-qizlar sinflari tashkil etila boshladi. Ushbu o'quv yilida respublika bo'yicha 96 ta xotin-qizlar maktabida 5936 nafar, 1926-1927 o'quv yilida 138 ta maktabda 7843 nafar, 1927-1928 o'quv yilida 165 ta maktabda 9142 nafar mahalliy xotin-qizlar tahsil olgan.

Samarqand viloyatida 1924/25 o'quv yilida 77 ta umumiy ta'lim maktablarida 7469 nafar o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1925/26 o'quv yilida maktablar soni 192 taga ko'payib, o'quvchilar soni 12744 nafarga etdi. 1926/27 o'quv yilida mavjud bo'lgan umumiy ta'lim maktablarida 14013 nafar o'quvchi o'qidi. 1924/25 o'quv yilida Samarqandda har o'n ming aholiga hisoblaganda 1,8 tadan maktab to'g'ri kelgan bo'lsa, 1925/26 o'quv yilida 2,7 tadan maktab to'g'ri keldi.

Samarqand shahar o'rta ta'lim maktablarida qizlarning ulushi.							
№	Maktablar nomi	1928-1929 o'quv yili		1928-1929 o'quv yili		1928-1929 o'quv yili	
		umumiy soni	qizlar	umumiy soni	qizlar	umumiy soni	qizlar
1	7 yillik №5 yevro maktab	72	31	219	108	290	150
2	№9 yevro maktab	71	33	138	70	165	85
3	Arman maktabi	-	-	15	6	30	10
4	Yevro.tuzem	32	4	54	12	125	35
5	Tolstov nomli	84	41	40	19	55	25
6	Narimanov nomli	13	2	14	2	25	6
7	Eron maktabi	-	-	22	6	50	20

8	Tatar maktabi	-	-	24	13	50	30
9	9 yillik №1 maktab yevro	263	163	294	177	245	145
10	№2 maktab yevro	143	76	144	77	140	70
11	O'zbek maktabi	-	-	23	-	30	10
12	Tojik maktabi	-	-	18	-	30	10
11	11-bosqich yevro.maktab	322	166	274	151	245	126
12	O'zbek-tojik maktabi	157	-	165	2	200	25
<b>Jami</b>		<b>1157</b>	<b>541</b>	<b>1444</b>	<b>643</b>	<b>1680</b>	<b>745</b>

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdi-ki 20-yillarda xalq ta'limi maktablarida asosan yevropa millatiga mansub qizlarning ulushi mahalliy xalq vakillariga nisbatan bir necha barobar ko'p edi.1930-yili umumiy boshlang'ich ta'limning tashkil etilishi,1934-1935 yillarda majburiy yetti yillik ta'limni joriy qilinishi qizlarni xalq ta'limi maktablariga jalb etishda bir qadar siljishlarga erishildi.

O'zbekistonda ushbu yillarda xotin-qizlar ta'limi tizimida hunar maktablari,qisqa kurslar va pedagogik texnikumlari keng tarqalgan ta'lim shakillaridan edi.Ushbu bilim yurtlari birinchi bosqichli maktablarni xotin-qiz kadrlar bilan ta'minlash uchun maqsad qilingandi. 20-yillarning boshlarida xotin-qiz kadrlar tayyorlash ishlari Toshkent shahrida amalga oshirilgan bo'lsa,keyinchalik O'zbekistonning boshqa hududlarida ham yo'lga qo'yila boshlandi. Xususan, Samarqandda 1924-yili xotin-qiz o'qituvchilar kursi tashkil etilgan bo'lib,shu yilning o'zida 15 nafar,1925-yil 25 nafar xotin qizlar bitirib chiqdi.1932-1933 o'quv yilida ushbu kurslarda o'qiydigan xotin qizlarning soni 146 nafarni tashkil etdi. Shuningdek, 3 yillik pedagogik texnikumlari ham xotin qiz kadrlar tayyorlashda alohida ahamiyatga ega bo'ldi.1918-yili Samarqandda

xotin-qizlarning pedagogika texnikumi tashkil etilgan edi. 1926-yilga kelib Qo'qon va Farg'onada ham ayollar pedagogika texnikumi ochildi. Ushbu bilim yurtlarida 1926-1927 o'quv yilida 466 nafar xotin-qiz, 1927-1928 o'quv yilida 628 nafar xotin-qizlar tahsil olgan.

Xotin-qizlarning kasb hunar bilim yurtlariga jalb etilishda birmuncha siljishlarga erishilgan bo'lsada, hali kamchiliklar ko'p edi. 30-yillarda xotin-qizlarni kasb-hunar bilim yurtlariga jalb etilish rejasi 45% qilib belgilangan bo'lsada, lekin bu 35% ni ham tashkil etmagan. Xotin-qizlarni majburan kasb-hunar bilim yurtlari va qisqa kurslarga jalb qilinishda majburlash holatlari ham uchrab turgan. Zero, 1933-yil Samarqanddagi ikki yillik tayyorlov kursini bitiruvchilari bo'lmaganini fikrimiz dalilidir. Lekin, 1932-1933 o'quv yilida ushbu kurslarga 146 nafar xotin-qizlar tahsil olardi. Xotin-qizlarning bilim yurtlarini tashlab ketish sabablari ushbu bilim yurtlarida aniq o'quv rejalarning mavjud bo'lmaganligi, ularga dars beruvchi o'qituvchilar asosan rus tilida dars o'tishi va uzoq hududlardan keluvchi xotin-qizlar uchun yotoqxonlarning kamligi, bundan tashqari mahalliy urf-odatlar ayollarni uzoqqa borib o'qishiga yo'l bermasdi. Masalan, 1927-1928 o'quv yilda Samarqanddagi ayollar pedagogik bilim yurtiga 105 nafar xotin-qizlar qabul qilingan bo'lsa, shularning 80 nafari yotoqxonalariga joylashtirish imkon bo'lgan. Mavjudlarida ham yashash uchun sharoit qoniqarli emasdi.

1927-yilda Samarqandda Oliy Pedagogika Akademiyasi tashkil etildi. 1930 yilda akademiyaning 81 nafar bitiruvchisidan 14 nafarini xotin-qizlar tashkil etib, shulardan 8 nafari o'zbeklar: M. Mamlizoda, R. Umarova, M. Rustamova, M. Sobirova (Oydin), R. Ahmedova, M. Alixo'jaeva, I. Akbarxo'jaeva, M. Qosimxo'jaevalar bo'lgan. 1931 yilda esa Pedagogika akademiyasini 16 nafar ayol muvaffaqiyatli bitirib chiqdi.

Samarqand shahridagi ko'zga ko'ringan oliy o'quv yurtlaridan yana biri O'zbekiston Meditsina instituti 1930-yil oktyabr oyidan o'z faoliyatini boshlaydi. 1931-yilda institutda 400 talaba o'qigan bo'lib, ulardan 60% yevropaliklar, 40%

mahalliy millat vakillari edi. Shuni takidlash kerakki, O'zbekiston SSR MIKning o'rta va oliy o'quv yurtlaridagi talabalarning eng kamida 75% mahalliy millat vakillaridan bo'lsin, degan qarori bajarilmay kelingan. Shuningdek, qaromning o'quv yurtlariga xotin-qizlarning 30 % jalb qilinishi kerakligi to'g'risidagi bandi ham bajarilmaganligi sababli institutda faqat 5 nafarini xotin-qiz mahalliy millat vakillari tashkil etgan. 1930 yilda O'zbekiston Meditsina institutiga 122 nafar talaba qabul qilinadi. Ularning 34 nafari mahalliy millat vakillari edi. Ularning orasida 3 nafar (Mariyam Jalolova, Kashifa Ibrohimova, O'ktam Vahobova) xotin-qiz talaba bor edi.

Shunday qilib, ushbu yillarda xotin-qizlarni o'rta va oliy ta'lim sohasiga qamrab olish ishlarida ham sezilarli siljishlarga erishila boshlandi.

Sovet hukumati tashkil topgandan boshlab sovet rahbarlari ayollar idealiga sodiq edilar. Sovet mamlakatlarining barcha hududlarida ayollarni erkaklar bilan teng ravishda ozodlik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayotning barcha jabhalariga birdek joylashtirish g'oyasiga asoslangan edi. Bu ishlarni amalga oshirishda sovet hokimiyati ta'limni siyosiy va iqtisodiy safarbarlikning muhim tarkibiy qismi deb hisoblardi. Temir yo'l vagonlarida, chodirlarda, fabrikalarda va barcha mumkin bo'lgan barcha joylarda maxsus savodxonlik kurslari (likbez) tashkil etilgan. Taxminan, 1930-yillarda boshlang'ich ta'lim o'g'il bolalar va qizlar uchun majburiy bo'lgan. Ayollar o'rtasida savodsizlikni bartaraf etish uchun alohida e'tibor qaratildi. Bir qator shaharlarda ayollar uchun maxsus maktablar mavjud turi tashkil etildi. Shundan so'ng, ayollar kasblarga, xususan, huquqshunoslik, tibbiyot, o'qituvchilik va ilmiy tadqiqot sohaslariga kirib bora boshladi.

Sovet hukumati uchun maktab nafaqat umumiy ta'lim dasturi taqdim etiladigan joy, balki bu kommunizm qadriyatlari va maqsadlarini yosh avlodga singdirish uchun ham kanal edi. Bu jarayonda jamiyatdagi ayollarning roli ham muhim edi. Turkiston ASSR Xalq Komissarlar Sovetining 1924-yil 11-noyabrida qarori qabul qilindi va bunga ko'ra savodsizlikni tugatish maktablarini tamomlagan xotin-qizlarga va olti oylik kurslarda tahsil olgan dehqonlarga imtiyozli kreditlar

va qishloq xo'jaligi banklaridan ssuda mablag'lari berildi. Bu imtiyozlar evaziga qishloq xo'jaligi asboblari va yerlar ajratilib ularning mablag'lari 2 yil muddatga to'lash sharti bilan berilgan.

Dastlabki yillarda o'tkazilgan tadbirlarga qaramay, ushbu yillarda xotin-qizlarni sovet ta'limi tizimiga qamrab olishda bir qancha muammolar bor edi. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi Xotin-qizlarni ta'lim sohasiga jalb qilishdagi dastlabki yillardagi amaliy ishlarni tahlil qilib, unga ko'ra xotin-qizlar ta'limining o'sishining umumiy doirasidan o'ta orqada qolayotganligini ta'kidladi. Shu bilan birga, xotin-qizlar klublari tarmog'ining kichikligi, siyosiy-ma'rifiy muassasalarni saqlash uchun mablag'larning yetarlicha ajratilmaganligi, asosiy millat ayollaridan ishchi kadrlarning yetishmasligi, ayollar klublari va burchaklarini adabiyot va uslubiy ko'rsatmalar bilan o'z vaqtida ta'minlanmaganligi, mahalliy millat ayollari o'rtasida savodsizlikka barham berish ishidagi zaiflik yaqqol ko'zga tashlanib qolgandi. Shunga ko'ra, O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumi xotin-qizlar ta'limini yanada rivojlantirish maqsadida quydagi bir qator tadbirlarni belgilab berdi:

-O'zbekiston Xalq Maorif Komissarligining 5 yillik umumiy ta'lim rejasini tuzishda byudjet mablag'larini hisobga olgan holda, Maorif xalq komissarligining byudjet rejalarini tuzishda umumjahon ta'limini joriy etishda tormoz bo'lib qolmasligi uchun tegishli mablag'lar ajratilib, 5 yil oxirigacha o'qiydigan qizlarning foizini o'g'il bolalar foiziga yetkazish;

-Kelgusida Maorif Xalq Komissarligi, ayniqsa, quyi bo'g'inlarda ayollar maktablari tarmog'ini ochish, shu bilan birga aholi o'rtasida mahalliy millat qizlarini, ayniqsa, umumta'lim maktablariga jalb etish bo'yicha tizimli ishlarni kuchaytirish, umumjahon ta'limini amalga oshirish davrida ayollarni yoshlar bilan qamrab olish darajasi orqada qolmasligi uchun ayollarni tarbiyalash ishlarini kengaytirish;

- o'smirlarning birgalikda o'qishiga yo'l qo'ymaydigan diniy va maishiy qarashlar mavjudligini hisobga olib, eski shahar va qishloqlarda o'smirlar uchun alohida xotin-qizlar maktablarini tashkil etish masalasini ko'rib chiqish;
- bundan tashqari, dehqon yoshlari uchun qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sohasiga moyil qizlar uchun maxsus maktablar tashkil etish, ayollar mehnati ustunlik qilish zarurligi hisobga olish;
- hozirgi davrda xotin-qizlar maktablari va ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning yetishmasligi va ularning rivojlanish darajasi sustligini inobatga olgan holda Xalq Maorif Komissarligi va uning mahalliy organi o'qituvchilar tayyorlash masalasiga eng jiddiy e'tibor qaratishlari lozimligi;
- Xotin-qizlar texnikumi, kurslari orqali pedagogik kadrlar tayyorlashning barcha turlari maktab tarmog'ini joylashtirish va boshlang'ich maktabning dastur talablariga moslashtirish rejasi bilan qat'iy bog'langan bo'lishi kerakligi;
- mahalliy millatga mansub ayollarni maxsus xotin-qizlar ta'lim muassasalarini rivojlantirish orqali ham kasb-hunar ta'limi bilan qamrab olish darajasi ham, ularni umumta'lim maktablariga jalb etish darajasi hamon ahamiyatsiz qolayotganligi sababli kelgusida kasb-hunar ta'limi muassasalari tarmog'ini sezilarli darajada kengaytirish, shu bilan birga ularni umumiy kasb-hunar ta'limi muassasalariga imkon qadar keng jalb etish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni ko'rish;
- kasb-hunar ta'lim muassasasi va ikkinchi bosqich maktabiga o'qishga qabul qilish uchun tayyorlanayotgan qizlarning yetarli sonini ta'minlay olmaydigan, o'qishga qabul qilish uchun tayyorlanayotgan yoshlardan iborat malakali kadrlar yetishmasligini hisobga olib, kasb-hunar ta'limiga ega ishchi va fermerlarni ko'proq qamrab olish maqsadida xotin-qizlar uchun maxsus tayyorgarlik umumiy ta'lim kurslarini tashkil etish;
- birinchi bosqichdagi xotin-qizlar maktablari va mehribonlik uylarini tashkil etish sifati sustligini aniqlab, Xalq ta'limi komissarligi uni takomillashtirish chora-tadbirlarini ko'rish, maktablarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lardan oqilona



- va to'liq foydalanishga intilib, ayol o'qituvchilari malakasini oshirish bo'yicha muvaffaqiyatli ishlarni davom ettirish;
- Xotin-qizlarni ozod qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ining kam tarqalganligini qayd etib, Xalq ta'limi Xalq komissarligi bu ishga kasb-hunar va jamoat tashkilotlari mablag'larini jalb etish bo'yicha yanada keng targ'ibot olib borishi, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini tayyorlash bo'yicha kurslarni kuchaytirish zarurligiga e'tibor qaratishi va barcha tumanlarda ushbu kurslarni to'ldirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;
  - xotin-qizlar burchaklari va xotin-qizlar klublari tarmog'ini kengaytirish masalasini ishlab chiqish;
  - barcha siyosiy-ma'rifiy ishlarda "hujum" shiorini amaliy mustahkamlash, xotin-qizlarni kooperatsiyaga keng jalb etish, qishloq xo'jalik hayotida dehqon xotin-qizlarining rolini oshirish, dehqon xotin-qizlari huquqlarini himoya qilish, qalimaga, ko'p xotinlikka, yosh qizlarni turmushga berishga keng tushuntirishga alohida e'tibor qaratish;
  - Savodsizlikni tugatishning umumiy rejasiga muvofiq, xotin-qizlar o'quv markazlari, kam ma'lumotli, yakka-guruhlar maktablari tarmog'ini, har bir yil uchun o'quv vazifalarini, ta'lim dasturi xizmatiga, birinchi navbatda, eski shahar va qishloqlarda faol ayollar guruhlarini joylashtirishni har tomonlama kuchaytirish, o'quvchilarning o'qishdan ketishiga qarshi kurashish va ularni maktabga ta'minlash bo'yicha ishlarni yo'lga qo'yish va bu ish mazmunini yaxshilash;
  - 1928/29 yillardagi qurilish rejalarida, shuningdek, besh yillik xo'jalik rejasida Buxoro, Qo'qon va Samarqandda klublarni kapital ta'mirlash va yangi binolar qurishni nazarda tutish;
  - Mahalliy millat ayollarini maktablarga qamrab olishning sekin o'sishiga ko'p jihatdan binolar, jihozlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlangan ayollar maktabining ahvoli umumiy maktabga qaraganda ancha yomon ekanligini

ta'kidlab, 1928/29 yillarda Ijtimoiy ta'lim maktablari, xotin-qizlar o'quv dasturlari va ta'lim maktablari faoliyati uchun normal sharoit yaratish choralarini ko'rish;

-Xotin-qizlar erkinligi va baynalmilal tarbiya masalalarida talabalarni faollashtirish yo'nalishida ular bilan o'qitish va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlarini ko'rish ishlari nazarda tutilsin.

Hukumat tomonidan amalga oshirilgan bir qancha chora-tadbirlar natijasida xotin-qizlarni ta'lim sohasiga jalb qilishdagi ba'zi muammolar o'z yechimini topa boshladi. Shunga qaramay hali ham sohada yechimini kutib turgan muammolar yetarlicha edi.

## **II bob. SAMARQAND MAORIF TIZIMINING SOVETCHA ANDOZAGA O'TISHDAGI DASTLABKI QADAMLAR VA MUAMMOLAR**

### **§ 2.1. Samarqandda dastlabki pedagogik o'quv kurslarini tashkil etilishi**

Samarqand azaldan O'rta Osiyoning ilm-fan, ma'naviyat, madaniyat va ayniqsa ta'lim tizimi rivojlangan maskanlaridan biri bo'lgan. O'rta Osiyoda yozuv shakllanib taraqqiy etgan davrda sug'd yozuvining alohida ahamiyatga ekanligini ta'kidlab o'tish fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, Sug'dda o'g'il bolalarga besh yoshidan boshlab yozuv va hisobga o'rgatila boshlangan. Temuriylar davriga kelib Samarqand nafaqat poytaxt vazifasini, balki, ta'lim markaziga aylandi. Bu yerda ko'plab maktab va madrasalar bunyod etilib, bu ta'lim dargohlarida o'z davrining mashhur olimlari mudarrislik qilgan. Ulug'bek farmoni bilan qurilgan madrasa va rasadxona zamonasining eng yirik dorilfununi bo'ldi. Ushbu ilm dargohlari ko'plab ilmi kishilarni yetishtirib chiqardi. Va bu jarayon XX asrning dastlabki choragigacha davom etgan.

1917-yilgi oktyabr to'ntarishidan keyin Turkiston maorif tizimidagi ilgorigi boshqaruv idoralarini tugatish va xalq ta'limining sovet modeli asosini yaratish yuzasidan qizg'in harakatlar boshlanib ketdi. 1917-yili noyabr oyida Turkiston o'lkasi Maorif xalq komissarligi tashkil etildi. Rus maktablari tezlik bilan isloh qilindi. Asosan sovet hokimiyati mavqei mustahkamlangan

shaharlardagi mavjud avvalgi gimnaziya, bilim yurtlari o'rnida qisqa vaqt ichida sovet o'quv yurtlari tashkil etildi. Shuningdek, Samarqandda ham ushbu o'zgarishlar yuz berdi. 1917-yil noyabridayoq Samarqand shaharida o'qituvchilar tayyorlaydigan uch oylik kurslar tashkil etildi. 1919-1920-yillarda Samarqandda ham "maktab-kommuna"lar ochildi. 1918-yilda sotsializm g'oyasini keng yoyish maqsadida "Samarqand viloyat Internatsional o'qituvchilar uyushmasi" tuzildi. Bu uyushmaning asosiy maqsadi sotsializm qurish uchun zamonaviy maktab tizimini yo'q qilib, yangisini yaratishda ta'lim va tarbiya sohasidagi barcha ishchilarni birlashtirishni maqsad qilgan edi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun uyushma Samarqand shahar kengashi huzuridagi Xalq ta'limi kengashi bilan hamkorlikda ish olib bordi. Uyushmaning bevosita vazifasi quydagilardan iborat edi:

- bepul mehnat maktablarni tashkil etish;
- bolalar va yoshlar huquqlarni himoya qilish;
- xalqning madaniy taraqqiyotini yuksaltirish;
- keng xalq ommasi o'rtasida bepul ta'lim g'oyalarini amalga oshirish
- uyushma a'zolari va o'quvchilarda sinfiy ongni rivojlantirish
- uyushma ushbu masala bo'yicha ma'ruzalar, suhbatlar va bahslar tashkil qilishi, o'qituvchilar, kasaba uyushmasi maktablardagi mehnat unumdorligi faqat o'quvchining o'qituvchiga bo'lgan ishonchiga, sinfiy ongga asoslanishi, barcha ta'lim muassasalarida baholash va bilim, mukofot va jazo sifatidagi imtihonlar va baholarni bekor qilish;
- o'qituvchi o'z shogirdida ichki intizom tamoyilini-aniqlik, fan va mehnatga bo'lgan muhabbatni qo'llash, u nima bo'lishdan qat'iy nazar jismoniy yoki aqliy bo'lishidan qat'iy nazar, o'rgatishda yetakchi bo'lishi kerak, shuningdek, o'quvchilarning katta do'sti bo'lishi va farq qilishi kerak, ulardan katta hayotiy tajriba va bilimga ega bo'lishi;

O'qituvchilar kasaba uyushmasi barcha o'quvchilarning nafaqat maxsus bilimlar, balki pedagogika sohasida ham eng so'nggi ilmiy tamoyillar asosida puxta tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlashga intiladi.

Sovet hukumati dastlabki paytda pedagog kadrlarni tayyorlash masalasida asosan rus kadrlarga e'tiborini qaratdi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan erkaklar va ayollar gimnaziyasida ham asosan rus fuqorolar o'qitildi. Ammo bu sovet maktablarini tashkil etilishida o'qituvchilar yetishmasligi muommosini keltirib chiqardi. Shu sababli keyinchalik pedagoglar tayyorlash kurslariga mahalliy xalqni ham jalb qila boshladi.

1919-yil 28-yanvarda shu yili 1-martdan boshlab Toshkentda Samarqand musulmonlari uchun "olti oylik o'zbek o'qituvchilari kurslar" tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu tayyorlov kursiga Samarqand uyezdidan quydagi 17 nafar tinglovchi Toshkentga yuborildi:

- 1) Xodji Hasanov
- 2) Mulla Xakim usta Mansurov
- 3) Mirza Baxautdin Suleymanov
- 4) Mulla Muqim Nur Muhamdov
- 5) Mirza Salix Abdul G'oziyev
- 6) Abdu-Nasim Abdusalyamov
- 7) Boltaqul Do'st Magimetov
- 8) Mir Ochil Mir Mansurov
- 9) Gimadetdin Xamidov
- 10) Qori Abdu Aziz Mo'minov
- 11) Muhammad Fotix Yusufov
- 12) Zamonov
- 13) Radjab Suleymonov
- 14) Mullo Ato Raziqboyev
- 15) Mir Kamil Mir Mansurov
- 16) Mulla Sulton Karaboyev
- 17) Mulla Haydar Usmonbayev

Tayyorlov kursiga borganlar uchun yotoqxonalar va o'quv qurollar bilan ta'minlandi. Bundan ko'rinadiki mustamlakachilar mahalliy aholini ta'lim berish

ishlaridan chetda tutishga harakat qilmasin buning uddasdan chiqolmadi. Chunki kamchilikni tashkil qilgan rus pedagoglari bilan butun o'lka ta'lim tizimiga pedagoglarni yetkazib beraolmas va bundan tashqari rus mutaxassislari mahalliy xalqning ichiga to'liq kirib boraolmasdi. Xalq maorif komissarligi uchun kadrlar masalasi maktab qurilishidagi bosh muammo edi. Yangi tuzum pedagoglarini, birinchi navbatda maxalliy maktab o'qituvchilarini tayyorlash uchun har tomonlama chora tadbirlar belgilandi. Garchi sovet hokimiyatining dastlabki yillarida mahalliy milliy maktablarning o'qituvchilari sovet maktablarida dars bersalar ham ularni "alohida o'qitib" tayyorlash zarur bo'ldi. Binobarin, o'qituvchilar tayyorlash butunlay yangicha negizda qisqa muddatli kurslar orqali yo'lga qo'yildi. 1919-yil may oyida esa Samarqandda "musulmon o'qituvchilari uchun 4 oylik pedagogik kurslar" tashkil etildi. 1923-yil avgustda ushbu kursni 47 nafar tinglovchi bitirdi. Mazkur yillarda Samarqandda bir qancha pedagoglar tayyorlaydigan muassalar faoliyat olib borgan. 1923-yilgi Samarqand viloyat xalq ta'limining ahvoli to'g'risidagi hisobotiga ko'ra : Samarqand shahari va uyezdida yevropaliklar pedagoglarni tayyorlovchi ikki bosqichli maktabning birinchi bosqichida 1420 nafar; ikkinchi bosqichida 151 nafar; bir bosqichli o'zbek pedagoglar tayyorlovchi kursda 1639 nafar; madrasalarda 200 nafar talabalar tahsil olgan.

20-yillarning o'rtalari Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi yirik tarixiy voqea milliy-hududiy bo'linish jarayoni tufayli tarixda o'chmas iz qoldirdi. "Bulinish" jarayoni qardosh xalqlar yashagan tarixiy hududlari va tub aholi irodasini hisobga olmay, "yuqoridan" mamlakat siyosiy rahbariyatining "don"siyosati tufayli amalga oshirildi. Bu jarayon Markaziy Osiyo jamoatchiligi o'rtasida noroziliklar tug'ilishiga sabab bo'ldi. Milliy siyosatdagi qo'pol og'ishlar ijtimoiy rivojlanish, jumladan, davlat qurilishining buzilishiga olib keldi. O'zbekistan respublika deb e'lon qilinganining dastlabki kunlaridan u sovetchasiga suniy ravishda sinfiy qarama-qarshilik mafkurasi oqimida shakllandi.

Natijada, aholining ko'p qismi ijtimoiy-siyosiy hayotdan chetlatildi. O'zbekistan SSR tashkil etilishi bilan uning barcha hududida yangi ma'muriy bo'linishlar, viloyat va tumanlar vujudga kelib, ular ham sovetlashtirila boshladi. 1924 yilda poytaxt etib Samarqand shahri belgilangan edi.

Yangi sharoitda maktab ta'limi, uni sifat jihatidan yaxshilash, malakali pedagoglar tayyorlash masalasi alohida ahamiyat kasb etdi. O'qituvchilar, ayniqsa boshlang'ich maktab muallimlari soni ildam o'sdi. Xususan, 1925-yilda qishloqlardagi 1-2-sinf o'quvchilarini o'qituvchi pedagoglar tayyorlash kursi ochildi. Kursga 25 nafar tinglovchi qabul qilindi. Shu bilan birga Samarqand viloyatidagi qishloq o'qituvchilarini qayta tayyorlash kurslarida 310 nafar o'qituvchilar qayta tayyorlandi. Pedagoglar tayyorlash o'zbek kurslar 213 nafar pedagoglar bitirdi.

20-yillar respublika maorifi faoliyatining muhim yo'nalishlaridan yana biri ayollarga ta'lim berish doirasini kengaytirishdan iborat bo'ldi. O'g'il va qiz bolalarning birgalikda o'qitilishi mahalliy aholining kuchli qarshiligiga uchradi. Buning natijasi o'laroq 1922/23 o'quv yildan ixtisoslashgan qizlar maktablari soni ortib bordi. Qiz va ayollarni umumta'lim va savodsizlikni tugatish maktablariga jalb qilish uchun ularga turli imtiyozlar belgilandi.

Boshlang'ich maktablar uchun ayol o'qituvchilar texnikum va qisqa muddatli kurslarda tayyorlandi. Bu hol qizlar boshlang'ich maktablari tarmog'ini kengaytirish, ularni qishishga ko'proq jalb qilish uchun maqbul sharoit yaratdi. Shu yillarda Samarqand viloyatida 4 ta qizlar maktabi ochildi.

O'lkada hukumron tuzum manfaati va kommunistok partiya mafkurasi g'oyalaridan kelib chiqqan holda rivojlanib bordi. Garchi ajratilgan mablag'lar o'quv yurtlari, madaniy-ma'rifiy muassasalari sonini oshirib borish uchun imkoniyat yaratgan bo'lsa-da, lekin ushbu muassasalarda ta'lim milliylikdan ancha yiroq bo'ulgan, mahalliy xalq urf-odatlariga, an'analari, zadriyatlariga mos

kelmaydigan tadbirlar olib borildi. Bu xildagi olib borilgan ishlar o'z navbatida o'lka xalqlari hayotida chuzur iz qoldirdi.

## § 2.2. Oquv kurslaridagi o'quv jarayoning mohiyati.

XX asr boshlarida Turkistonda zudlik bilan hal etishni talab qiluvchi dolzarb vazifalardan biri sifatida ma'rifat, maktab va kadrlar masalasi ko'rib chiqildi. O'sha davrda jadid harakati vakillari ta'lim tizimi va o'quv-tarbiyaviy ishlarni tubdan o'zgartirish, yangi maktablar tashkil etish va ularni boshqarish vazifalarini birinchi o'ringa qo'ydi. Ammo oktyabr to'ntarishidan keyin Turkistonda hokimiyatga kelgan bolsheviklar darhol avvalgi xalq ta'limi tizimini tubdan buzish, an'anaviy maktablarni bartaraf etish, "sotsialistik ta'lim"ning yagona modelini majburiy joriy etish bo'yicha kuchli sa'y-harakatlarni amalga oshirdi. Markazdan chiqqan ta'lim sohasining "radikal yangilash" strategiyasi bolshevik "madaniy inqilob" dasturiga asoslangan bo'lib, keng ommaning fikri mutlaqo hisobga olinmagan. Xususan, xalq ta'limi komissarligining bir qismi sifatida mahalliy millatlarning hech bir vakili yo'qligi mahalliy aholi manfaatlarini to'liq e'tibordan chetda qoldirganidan dalolat beradi. Ushbu jarayonida Turkistonda qirol imperiyasining shakllanishining sobiq tuzilmasi yo'q qilindi, musulmon maktabiga katta zarba berildi va milliy ta'limning istiqbolli shaklini ifodalovchi jadid "yangi usul" maktablari ham e'tibordan chetda qolmadi.

Turkistonda Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida maktablarning noto'g'ri va tartibsiz qurilishi, shuningdek, o'qituvchilarni tayyorlashning juda past darajasi kuzatildi. Maktab qurilishining moddiy ta'minoti pul mablag'lari, uy-joy fondi va kadrlar mavjudligini hisobga olmagan holda barqaror ravishda oshdi. Buning natijasi Turkistonda maktablarning tizimsiz va uyushmagan qurilishi, ba'zan esa o'z-o'zini boshqarish xususiyatiga ega edi. Shu bilan birga, maktablar qanchalik ko'p ochilsa, ularning ahamiyatini yo'qotdilar. Kadrlar tanqisligi, darsliklar va qo'llanmalarning keskin yetishmasligi, imtihonlarni bekor qilish – bu omillarning barchasi birgalikda maktabning faqat nominal ekanligiga olib keldi. Sh. Rahimiy

shunday deb yozgan edi: "maktablar hamma joyda faqat ko'proq yoki kamroq mos bino va o'quvchilar soni bo'lsagina ochildi".

O'sha davrdagi keskin munozarali masala o'qituvchi kadrlar muammosi edi. Ko'rib chiqilayotgan davrdagi gazeta-jumal jamoatchiligida o'qituvchilarni tayyorlash, ularning moddiy ahvoli, ijtimoiy mavqei haqida turli fikr-mulohazalar bildirildi. Ayniqsa, qizg'in bahs-munozaralar yangi maktablarning kadrlar muammosini keltirib chiqardi. Haqiqatan ham, sovet Ittifoqi tizimining jadal kengayishi bilan, sobiq o'qituvchi korpusning aksariyat qismi mafkuraviy sabablarga ko'ra sovet maktabiga yo'l qo'yilmadi yoki ular o'zlari bu yerda ishlashdan bosh tortdilar. Mavjud haqiqatlarda qisqa muddatli kurslarda "yangi o'qituvchilar"ni tayyorlash orqali kadrlar tanqisligi muammosi hukumat tomonidan hal qilindi. Ushbu shakl ularning jadal o'sishini ta'minlashga imkon berdi, ammo tayyorgarlik sifati juda past edi. Bundan tashqari, tinglovchilar, qoida tariqasida, kam daromadli ishchilar va kambag'al dehqonlardan iborat bo'lishdi. Tilla Xodjaning bunday kurslari, masalan, "o'qituvchi fabrikasi", "har ikki oyda yuzlab o'qituvchilarni tayyorlaganmiz, ularning qo'lida maktablarimizning taqdirini topshirishimiz kerak", deb nomlangan. Muallifning bu mulohazalari bizga bu masala bo'yicha haqiqiy vaziyatni taqdim etishga yordam beradi.

O'qituvchi-xodimlarni tayyorlash orqali eng haqiqiy va arzon kurs tizimi birinchi navbatda xizmat qildi. 1918-da, turli xil ta'lim muddatlariga ega bo'lgan qisqa muddatli bepul o'qituvchilar kurslarining keng tarmog'i tarqatildi. 6 haftadan 6 oygacha, ularning tayyorlash darajasidan qat'i nazar, barcha pedagog bo'lishga taklif qilingan. Davlat o'quv jarayonini moliyalashtirishni, shuningdek, kursantlarni o'qish joyiga va qaytib kelish uchun to'lashni, bitiruvdan keyin o'qish va ish bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oldi.

Ushbu kurslarda, umumta'lim fanlari bilan bir qatorda, siyosiy fanlarga katta e'tibor berilib, kelajakdagi o'qituvchilarda marksistik dunyoqarashni shakllantirishi kerak edi. Jumladan, 1919-yil 28-yanvarda shu yili 1-martdan boshlab Toshkentda



Samarqand musulmonlari ochilgan olti haftalik kurslar dasturiga matematika, ona tili, geografiya, tabiatshunoslik, fizika, kimyo, tarix-riyoziyot, pedagogikadan tashqari "milliylashtirish va ijtimoiylashtirish g'oyasini batafsil tushuntirish bilan siyosiy iqtisodning qisqa kursi", "jahon tarixi, ular o'nlab yillar davomida (jahon kapitalizmi va imperalizm)", "Sovet hokimiyatining g'oyasi va uning Rossiyada tashkil etilishi" va bularning barchasi ko'pincha o'qish va yozishni biladigan odamlarga o'rgatilgan

Maorif xalq komissarlarining 1924-yilda tashkil etilgan Akademik markazi o'quv jarayonlarining g'oyaviy yo'nalishini nazorat qilib bordi. Markazga barcha turdosh o'quv yurtlari uchun darsliklar, rejalar va dasturlar tuzish, ularning g'oyaviy mazmunini nazorat qilish topshirilgan edi.

Oliy o'quv dasturida u yoki bu fanni "o'qitish uslubiyati" tayyorlanmagan edi. Pedagogika bilim yurtlari, tayyorlov va takrorlash kurslarida o'qituvchilarga bunday bilimlarni amaliyotchi pedagoglar berar edi. Bolalar psixologiyasiga oid va boshqa maxsus fanlar ham yo'q edi. Shunday qilib, yangi bitirib kelayotgan o'qituvchilar "inqilobiy ijtimoiy fan" bilan qurollangan, tarixni materialistik idrok etish bilan tanish bulsa-da, ammo zamonaviy pedagogik bilimlarni, boshlang'ich yoki katta sinf xususiyatlarini hisobga olib maktabda ishlash uslubiyatini hali bilmas edi.

### **III bob.SAMARQANDDA YANGI BILIM YURTLARINI VUJUDGA KELISHI**

#### **§ 3.1. Samarqand maorif institutini tashkil etilishi**

20-yillar boshlarga kelib chuqur dars beradigan bilim yurtlariga ehtiyoj sezila boshladi. Chunki olti oylik kurslar maktablarni tezlik bilan o'qituvchilar bilan ta'minlasa-da, lekin ularni bitirgan pedagoglar mutaxassislik bo'yicha ham, o'qitish uslubiyati sohasida ham chuqur bilim beraolmasdi. Shu tufayli yangi bilim yurtlari ya'ni Maorif institutlari vujudga keldi.

20-yillarning birinchi yarmida maorif institutlari yuqori malakali maktab o'qituvchilari tayyorlash vazifasi bajardi. Ushbu oliy o'quv yurtlarida boshlang'ich maktab va savodsizlikni tugatish maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlandi. 1923-yili O'zbekistonda 11 ta maorif instituti bo'lib, ularda 1900 talaba o'qir, ulardan 80% ishchi va dehqonlar edi. Keyinroq moliyaviy qiyinchiliklar tufayli ular qayta tashkil etildi. 1924-yili jami 7 ta maorif instituti bo'lib, shundan beshtasi Toshkentda, Samarqand va Buxoroda bittadan edi. 1921-yili Samarqandda ham o'zbek maorif instituti ochilgan edi. Unda o'qish muddati to'rt yil bo'lib, dastlabki ikki yilida umumta'lim fanlari o'qitilar, qolgan ikki yilida ayrim mutaxassisliklar bo'yicha pedagoglar tayyorlangan. O'quv dasturi birinchi bosqich maktablari uchun pedagoglar tayyorlash uchun mo'ljallangan.

1921-yil 10-oktyabrda Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi Samarqand O'zbek maorif institutini ochish va boshqaruv a'zolarini sayladi. Unga ko'ra: Rahmatullayev rais, Nuri Xalimov rais o'rinbosari, Maqsudov kotib, Abdujabborov va Zaymal Abiddinov boshqaruv a'zosi bo'ldi. Shuningdek maorif instituti qoshida maktabdan tashqari kasb-hunar ta'limi bo'limi tashkil etildi. Hamda institutning pedagog xodimlari tarkibi ham quydagicha tasdiqlandi: Xalimov Nuri- matematika o'qituvchisi, Abdujabborov Abdurashid –matematika va ona tili o'qituvchisi, Zaynaabiddinov- tarix va matematika o'qituvchisi, Maqsudov Rajab – geografiya, Gaidov, Korenkulov, Kvasneskiy-rus tili, Bure –rasm, Radjiyev Faxriddin-turkiy tili, Slaviya-jismoniy tarbiya, Tairov-sotsiologiya, Terigulov- tabiat, fizika va kimyo, Mirbadalov, Gal- musiqa.

Maorif institutiga 14 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar qabul qilindi, boshlang'ich guruhga kirish uchun alifbo va sanoqni bilishning o'zi yetarli edi. Ikkinchi guruhga kiruvchilar ona tilidan to'la savodli, to'rt amalni bilishi va boshlang'ich siyosiy bilimi bo'lishi lozim edi. Dastlab maorif institutiga 20 talaba qabul qilindi.

Pedagog xodimlar tayyorlash yakdil strategik reja asosida olib borilib, yosh avlodni tarbiyalashni kommunistik mafkuraga sodiq shaxslar qo'liga topshirish maqsad qilib olindi. Tashviqot-targ'ibot ishlari, ijtimoiy fanlar o'tilganda bolshevisti hukumat hujjatlarini o'rganish, markscha-lenincha g'oyalarni egallash tayyorlov va takrorlash kurslarining har bir dasturi asosini tashkil etdi. Bo'lajak o'qituvchilarning g'oyaviy-siyosiy tarbiyasini kuchaytirishga alohida e'tibor berildi. Maorif xalq komissarligi Davlat ilmiy kengashi va Turkiston Kompartiyasi MK Tashviqot-targ'ibot bo'limi tasdiqlagan o'qitish rejasi va dasturi asosida maorif institutlarida 1922 yilidan ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o'qitish bu borada muhim rol o'ynadi.

1923 yilda bulib utgan TKP VII s'ezdi o'qituvchilarning siyosiy saviyasini oshirishga alohida e'tibor berdi. Syezd qarorlarida quyidagilar ta'kidlandi:

"O'qituvchi tayyorlash eng muhim ish ekanligini unutmash zarur. Biz uchun kerakli pedagoglarni yetkazib beruvchi maorif institutlarini yaxshilash kerak. Ulardagi o'quvchi va rahbarlar o'rtasida tanlov utkazish lozim. Asosiy maqsad - rahbarlar kommunist bo'lsin, tinglovchilar komsomol".

Partiya tashkilotlari "reaksion elementlarni safdan chiqarish"da ushbu vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarishga kirishdi, bunday elementlarga keksa ziyolilar, shuninrdek, o'qituvchilar ham kirar edi. RKP(b) XII syezdi qarorlarida ta'kidlanganidek "millatchilar va buyuk davlat shovinistlarining" mafkurasiga qarshi chiqib mahalliy partiya tashkilotlarida "do'ppi o'miga bosh olib kelindi". Keksa mutaxassislar, yuqori malakali o'qituvchilar yot unsur sifatida qoralanib, xalq ta'limi sohasidan quvg'in qilingan.

Yosh pedagoglar tayyorlashning barcha bosqichlarida xalq ta'limidagi "sinfy yot" elementlarni chetlatishga qaratilgan maxsus ijtimoiy tanlov o'tkazildi. Agar boshlang'ich va ikkinchi bosqich maktablarida joy taqchilligi tufayli birinchi navbatda, dehqon va ishchilar, so'ngra kompartiya a'zolari, fuqarolar urushi qatnashchilarining bolalari qabul qilingan bo'lsa, o'qituvchilarni tayyorlov va

takrorlash kurslariga yuborishda sinfiy kelib chiqishiga alohida e'tibor berildi. Bunday tanlov, ayniqsa oliy o'quv yurtlari qabulida keskin tus oldi.

Maorif institutga talabalikka qabul qilishda komissiya birinch navbatda oliy o'quv yurtini proletarlashtirish va turkiylashtirish nuqtai nazariga tayanadi".

Respublikaning barcha viloyatlarida 1-va 2-bosqich maktablarining miqdoran jadal o'sishi o'qituvchi kadrlar tayyorlashni favqulodda dolzarb masala qilib qo'ydi. Yangi sharoitda o'qituvchilar tayyorlashga yuqori talablar qo'yilardi. Maktablarga, ayniqsa qishloq xo'jalik yoki boshqa bir yo'nalishga ega bo'lgan 2-bosqich maktablariga oddiy savodxonlikdan boshqa biron bilimga ega bo'lmaganlarni muallimlik ishiga yuborib bo'lmasdi. Bundan tashqari, omma ongini qayta shakllantirish borasida keng ko'lamda tadbirlar olib borilar, bunday tadbirlar aynan maktab yoshidan boshlanardi. Shu bois o'qituvchilar, eng avval, bolshevistik g'oyalar tashviqotchisi sifatida maydonga chiqishi zarur edi.

O'zbekistondagi mavjud pedagogika texnikumi va maorif institutlari tayyorlayotgan o'qituvchilar miqdoran o'qsib borayotgan talabni qondira olmasdi. Shu bois o'qituvchilarni qisqa (o'rtacha bir yillik) kurslarda tayyorlash va qayta tayyorlash amaliyotidan keng foydalanildi. O'zbekiston Maorif xalq komissarligi hunar-texnika ta'limi tizimi pedagogika o'quv yurtlari bilan birgalikda ushbu kurslarga katta e'tibor berib, o'qituvchi kadrlar yetishmasligi muammosini bartaraf etishga harakat qildi. Biroq bu qisqa muddatli tayyorgarlik kutilgan natijani bera olmas, zero bo'lajak o'qituvchining maktabda to'laqonli ishlashi uchun uni zaruriy bilim va nazariy ko'nikmalar bilan bir yildayoq to'la qurollantirish mumkin emas edi. Shuning uchun 1925-1926 o'quv yilidayoq Maorif xalq komissarligi o'qituvchilar tayyorlashning ikki yillik muddatini eng qisqa muddat sifatida qabul qildi. Tayyorgarlikning qisqa muddatliligi va muallimlar bilimidagi kamchliklari keyinchalik joylarda o'qituvchilarning rejali malaka oshirishlari jarayonida to'ldirib borilgan.

Umuman, bu davrga kelib O'zbekiston Maorif xalq komissarligi tizimida pedagogika ta'limining muayyan tarixi shakllanib bo'lgandi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim asosida 1- va 2-bosqich maktablari uchun muallimlar tayyorlanardi. Pedagogika maktabi asosini besh yildan kam bo'lmagan maktab ta'limi tashkil etgan. Pedagogika o'quv yurtlari kursi to'rt yildan kam emasdi, ishga voyaga yetgan shaxslargina qabul qilingan.

Respublikaning o'ziga xos sharoitlari maktab va pedagogika bilim yurtlarining o'qituvchilar bilan kam ta'minlanganligi, ona tilida o'quv qo'llanmalari yoq'ligi, maktab va pedagogika bilim yurtlarining o'qituvchilari qishloq xo'jalik ishlariga tez tez jalb etilishi oqibatida ular tayyorgarligining pastligi - RSFSR markaziy shaharlarida qabul qilingan dastur asosida ishlashiga imkon bermasdi. Shu bois, 1925-yildan boshlab O'zbekistonda besh yillik 1-bosqich maktabi, Maorif institutlarining ishi ham yangi bosqichga ko'tarila bordi. O'qituvchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari, garchi, muallimlarning katta qismini yetishtirib berayotgan bo'lsa-da, pedagoglar tayyorlashning texnikum va institut singari doimiy shakllarigina maktabni yuqori malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash vazifasini ado etishi mumkin edi. Maorif institutlari asta-sekin texnikum va pedagogika bilim yurtlariga aylantirildi.

1925-yildan respublikaning o'sha paytdagi poytaxti - Samarqandda Oliy pedagogika instituti ochishga tayyorgarlik ko'rila boshlagan edi. Bu ishning asosiy murakkabligi: zaruriy katta binoning yo'qligi, o'quv-moddiy bazasining xarobliligi, pedagogika sohasidagi kadrlarning cheklanganligida edi. Ishning boshlanishi paytidayoq oliy o'quv yurti milliy kadrlar tayyorlashga yo'naltirilishi, o'quv jarayonining ona tilida olib borilishi lozimligi, buning uchun esa o'zbek tilida ishlovchi o'qituvchilar kerakligi haqidagi masala qo'yilgandi. Biroq professor-o'qituvchilarning asosiy qismi boshqa respublikalardan olib kelinganligi va ularning o'zbek tilini bilmasligi pand berardi.

1927-yil yanvarida Oliy pedagogika instituti ochildi. Yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, O'zbekistonda xalq maorifining uslubiy masa-

lalarini ishlab chiqish, kurs, ma'ruza, ekskursiya hamda ommabop o'quv adabiyotlari yaratish uning asosiy vazifasi qilib belgilangan edi.

Institutda uchta: fizika-matematika, tabiiy -geografiya va ijtimoiy iqtisodiy bo'lim tashkil etildi. O'qish to'rt yil davom etadigan bu institutning birinchi kursi tayyorlov kursi bo'lib, ikkinchi kursdan ixtisoslashish boshlanardi. Institutning to'rt kafedrasida o'sha vaqtda 11 o'qituvchi ishlardi.

1927-yil yanvarida 48 talaba va 27 erkin tinglovchidan iborat birinchi qabul o'tkazildi. Bular asosini pedagogika texnikumlari va maorif institutlarning yuqori kurs talabalari tashkil etardi. Erkin tinglovchilarning asosiy qismi maktab o'qituvchlari, xalq maorifi, partiya, kasaba uyushma va komsomol tashkilotlari xodimlaridan iborat edi. Erkin tinglovchilar birinchi sinov-imtihon sessiyasini muvaffaqiyatli topshirganidan keyin talabalikka o'tkazilar edi. Institut professor-o'qituvchilarining asosiy qismi boshqa shahar va respublikalardan Samarqandga taklif etilgandi. Jumladan, Bokudan pedagogika professori A.B. Selixanovich, Belorussiya universitetidan tarix professorlari D.A. Jarinov va S.A. Lyaskovskiylar kelishdi. O'zbekistan ilmiy-pedagog xodimlaridan adabiyotshunos Abdurauf Fitrat, tilshunos G'ozil Yunusov, tarixchi-sharqshunos V.L. Vyatkin, shuningdek, Oliy pedagogika institutining birinchi rektori biolog I.A. Merkulovichlar faoliyat olib borishdi.

Bir yildan keyin institutning uchta bo'limida 12 ta kafedra tashkil etilib, ular qoshida jihozlangan kabinet va laboratoriyalar ochildi. Institut zarur miqdorda mablag' bilan ta'minlab turildi. Uning yillik byudjeti dastlab 64522 so'mdan iborat bo'lsa, keyingi yil 1,0 mln so'mga yetdi.

1928-yili mazkur institutga Maorif instituti-ilgarigi ayollar gimnaziyasining binosi berildi. Faoliyatining uchinchi yilidan pedagogika instituti o'qitishning besh yilga mo'ljallangan yangi dasturi asosida ishlashga kirishdi. Talabalarning ixtisoslashuvi uchinchi kursdan boshlanardi. O'zbekistan Maorif xalq komissarligi hay'atining qarori bilan 1928-yil mayida Oliy pedagogika institutida o'qish muddati besh yil qilib belgilandi. Dastlabki bitiruv 1931-yilga mo'ljallangan.

Biroq, birinchi kursga texnikum va maorif institutlarining talabalari qabul qilinganligidan ular institutni muddatidan oldin - uch yilda tugatdilar. 35 nafar bitiruvchidan 25 nafari mahalliy millat vakillari edi. Kelgusi yili institutni 81 mutaxassis tugatdi, shulardan 14 nafari xotin-qiz, jumladan 2 nafari o'zbek edi.

1928-29 o'quv yili Oliy pedagogika institutida to'rt guruhdan iborat ishchi fakulteti ochildi. Bu davrda respublikada oliy pedagogika ta'limi rivojining eng murakkab jihati institutga kirib o'qish darajasida bilimga ega bo'lgan yoshlarning yo'qligi edi, ikkinchi bosqich maktablari tarmog'i institutning birinchi kurslaridagi o'rinlarni yaxshi tayyorlangan yoshlar bilan to'ldirish ehtiyojini qondirolmas edi. Shuning uchun, oliy o'quv yurtlari, maorif institutlari qoshidagi ishchi fakultetlaridan tashqari, viloyatlarda yoshlarni oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi.

Ko'rilgan bunday tadbirlar natijasi o'laroq Samarqand Oliy pedagogika institutiga qabul yil sayin orta bordi. Jumladan, dastlabki (1926/27) o'quv yili 65 kishi qabul qilingan bo'lsa, 1929/30 o'quv yilida bu kursatkich 159 nafarga yetdi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, bu yillarda o'qishga kirganlarning atigi 242 nafarigina ikkinchi bosqich maktabini bitirganlar edi. Pedagogika va boshqa texnikumlardan mazkur institutga kelgan 354 abituriyentning 193 nafari oliy o'quv yurtiga kirishga tayyorlov kurslarini o'tgan edi.

Xullas, 1925-1930 yillarda respublikada pedagogika o'quv yurtlari tarmog'i ildam rivojlandi. Xalq maorifi uchun davlat budjeti va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag'lar, garchi ortib borgan bo'lsa-da, biroq ular haqqiy ehtiyojni qondira olmadi. Ayni vaqtda, maorif sohasiga davlat budjetidan ajratilgan mablagning umumiy budjetga nisbatan foiz ko'rsatkichi to'xtovsiz pasaya bordi. Binobarin, sovet-partiya rahbariyati moliyaviy ta'minot siyosatida va xalq maorifiga budjet ajratmalarini belgilashda "qoldiq" prinsipiga amal qilganligi yaqqol ko'zga tashlandi. Natijada, pedagogika o'quv yurtlarining o'quv-moddiy bazasi achinarli ahvoldaligicha qoldi. Yuqori malakali, ayniqsa

mahalliy millat o'qituvchilariga ehtiyoj kuchli edi. Respublika Maorif xalq komissarligi hunar-texnika ta'limi tizimida pedagogika o'quv yurtlariga e'tibor bilan qaraldi. Birinchi va ikkinchi bosqich maktablari uchun muallimlar tayyorlash ortdi. Oliy ma'lumotli o'qituvchilar tayyorlash sezilarli darajada jadallashdi. Biroq milliy tillarda darslik va qo'llanmalar taqchilligicha qoldi.

### **§ 3.2. O'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlarini mafkuraviy tus olishi va pedagoglar tayyorlashdagi muammolar.**

20-yillarning o'rtalarida respublika xalq maorifi oldida turgan eng murakkab muammolardan biri maktablar, ayniqsa birinchi bosqich maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlashning sifati va saviyasini oshirish edi.

Avvalgidek kurslar o'qituvchi tayyorlash va qayta tayyorlashning eng ommaviy shakli bo'lib olaverdi. Biroq kengash o'qituvchilarning pedagogik ma'lumotini-yetti yillik, umumiy ma'lumotini esa maorif instituti beradigan darajagacha ko'tarishni tavsiya etdi. O'qituvchilarning asosiy qismini maorif institutlari, texnikumlar, maktab-kommuna muallimlari, shuningdek, universitet Maorif xalq komissarligi xodimlari tashkil qilardi. Muayyan ish tajribasiga ega bo'lgan talabalar ham kurslarda ishlashga jalb etildi. Shunday say-harakatlarga qaramay, milliy guruhlarning faqat 75-80 foizigina ona tilida ish laydiran o'qituvchilar bilan ta'minlangan edi.

1920- yillarning ikkinchi yarmiga kelib mamlakatni industrlash boshlandi, bunda sanoatning yangi tarmog'larini rivojlantirish dolzarb masala bo'lib qoldi. O'zbekistonda va hali kimyo sanoati mavjud emas edi, shu boisdan mutaxassis bo'lmagan joyda bu soha uchun xodimlar tayyorlash aynisqa murakkab edi. Binobarin, kimyo ta'limini yo'lga qo'yish zarur edi. Kimyo o'qituvchilari Toshkentdagi universitetda hamda Samarqanddagi Oliy pedagogika institutida, shuningdek, pedagogika texnikumi va kimyo yo'nalishidagi ikkinchi bosqich maktablarida tayyorlanar edi. Kimyogar o'qituvchilar hamda kimyo mutaxassislari tayyorlashda amaliyot o'tkazish mumkin bo'lgan kimyo sanoati



korxonalari, jihozlangan kimyo xonalari yo'qligi, borlari ham o'ta qashshoq ekanligi ishni ancha qiyinlashtirar edi. Kimyo fanini o'qitishni yaxshilash uchun Toshkentdagi universitetda va Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti kimyo xonalarini jihozlashdan tashqari, o'quv rejalarida mazkur fan uchun ajratilgan umumiy soatlarni ko'paytirish, shuningdek, kimyoni xalq xo'jaligida qo'llashga qaror qilindi. Bu masalalar o'quv rejalarida va barqaror maktab darsliklarida o'z aksini topdi.

20-yillarning ikkinchi yarmiga kelib sovet maktab qurilish ishida o'ziga xos qiyinchilik va ziddiyatlar yuzaga keldi. Jumladan, aksariyat maktablar moslashtirilgan binolarga joylashgan, ularning o'quv-moddiy bazasi o'ta xarob, maktab yoshidagi bolalarni o'qishga jalb etish, ayniqsa, qishloqda qoniqarli ahvolda emasdi, malakali pedagoglar yetishmas edi. Joylarda o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj, asosan qishloqda, ko'pincha qisqa muddatli kurslarni tugatgan yosh o'qituvchilar hisobiga qondirildi. Malakali o'qituvchilarni, asosan, pedagogika o'rta bilim yurtlari, maorif institutlari yetkazib berardi. 20-yillar oxiriga kelib, maorif institutlari pedagogika texnikumi va bilim yurtlariga aylantirildi.

1929-yil martida Markazda "O'qituvchilarni pedagogika oliy o'quv yurtlari va pedagogika texnikumlarida tayyorlash va qayta tayyorlash to'g'risida" qaror qabul qilindi. Direktiv organlar pedagog xodimlar tayyorlash darajasi pastligini ta'kidlab, Maorif xalq komissarligiga pedagogika o'quv yurtlarining moddiy sharoitini yaxshilash, talabalarning stipendiyalari miqdorini oshirishni topshirdi. Qarorda pedagogika oliy o'quv yurtlari va texnikumlarida, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy fanlarni o'qitishni yaxshilash uchun oliy va o'rta pedagogika o'quv yurtlarining professor o'qituvchilari tarkibini mustakamlash vazifasi qo'yildi hamda talabalarning pedagogika amaliyotini tashkil etishni yaxshilash zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Yillar o'tib pedagog xodimlarning tayyorgarlik darajasi orta bordi. O'qitish muddatlari uzayib, yangi o'quv reja va dasturlari ishlab chiqildi.

Talabalarning pedagogika amaliyotini o'tish tizimi takomillashdi. Pedagogika ta'limi va o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi faoliyati ustidan rahbarlikning yangi shakllari yuzaga keldi. Bunda vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan konferensiya va kengashlar, markaziy va okrug uslubiy kengashlari muayyan ahamiyat kasb etdi. Biroq o'qituvchi kadrlar tayyorlash mafkurasining o'zi katta kamchilikka ega edi. U marksistik tor sinfiy qarashlarga asoslangan bo'lib, kup asrlik milliy tajriba va jahon pedagogikasi yutuqlaridan bexabar edi. O'qituvchilarning yoshlar orasida kommunistik dunyoqarashni shakllantirish maqsadida aqidalashtirilgan, bir yoqlama tafakkurni tiqishtirish asnosida sovet tipini yaratish ustivor yo'nalish qilib qo'yilgandi. Ammo yuqori tashkilotning say-harakatlariga qaramay, pedagog xodimlarning muayyan qismi o'z milliy ildizidan ajralmadi. Ular milliy qadriyatlarni yoqlar, o'quvchilar orasida ko'p asrlik ma'naviy g'oyalarni mustahkamlashga intilar edilar. Boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mustahkamlanishi va stalincha ma'muriyatning hokimiyat tepasida o'mashuvi bilan maorif siyosatining milliy jihatlariga to'g'ri baho bera olmaslik ko'zga yaqqol tashlana bordi. Bu eng avval, ruslashtirishga qaratilgan siyosatda, tub aholi milliy manfaatlarining inkor etilishida namoyon bo'ldi. Xususan, o'quv rejasi va dasturlarida mahalliy materiallar deyarli yo'q edi, o'qitiladigan asosiy fanlar ro'yxatidan o'lkamiz tarixi, geografiyasi va tabiati tushib qolgan edi, o'tmishimizning buyuk madaniy merosi soxtalashlirib talqin etilardi. O'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiya tizimi o'qituvchilar tayyorlash dusturining mafkuralashuvi bilan yanada keskinlashdi. Hokimiyat organlari va rasmiy targ'ibot kengashlari 20-yillar oxirlaridan boshlab "yashirin sinfiy dushman"larni axtarish muhitini yaratib, "millatchilik" va o'zgacha fikrlashga qarshi keskin kurashni avj oldirdilar, ommaviy shubha va qidiruvni qat'iylashtirib qo'ydi.

20-yillarda O'zbekistondagi maktab tizimi o'zining chuqur mafkura va siyosat botqog'iga botganligi bilan ajralib turadi. Sho'rolar hukumati umumta'lim maktablaridan jamiyat a'zolarining umummilliy madaniyatini yuksaltirish, ularda yuksak ma'naviy sifatlarni shakllantirish maqsadida foydalanishni siyosatda ustivor yo'nalish qilib belgilamagan edi. Asosiy maqsad-sho'rolar hukumati, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining siyosatini oqlash, unga hayotbaxsh kuch berish edi. Shuning uchun ham, 20-yillarning boshidanoq maktabga kommunistik tarbiya o'chogi sifatida qaraldi. Kommunistik tarbiyaning asl mohiyati esa, kishilarda umumjahon qadriyatlaridan ayri xislatlarni shakllantirish, o'ziga xos siyosiy maqsadlar tufayli kishilarda ijtimoiy-siyosiy masalalarda loqaydlik keltirib chiqarishdan iborat edi.

O'tgan asrning 20-30 yillaridagi xotin-qizlar ta'limini ommaviy ravishda joriy etish uchun bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, xotin-qizlar bilim yurtlari, savodsizlikni tugatish kurslari, qisqa o'qituvchilik kurslari va institutlari katta hajmdagi ishlarni amalga oshirdi.

Xotin-qizlarning o'rta maxsus va oliy ta'limni rivojlantirishga qo'shgan hissasi ham anchayin salmoqli bo'ldi. Qisqa davr mobaynida o'zbek xotin-qizlaridan yirik mutaxassislar, olimlar va davlat arboblari yetishib chiqib boshladi, ular erkaklar bilan bir qatorda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirok eta boshladi.

## Xulosa.

Vatanimiz tarixi arxivshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar arxiv hujjatlari asosida tadqiq etilmoqda.

Darhaqiqat, tadqiq qilinayotgan davr nihoyatda murakkab, og'ir va chalkashliklarga boy. Shu sababli, ushbu davmi yoritishda ko'plab arxiv hujjatlariga murojaat qilindi.

O'tmish tarixiga nazar tashlash shuni ko'rsatadiki, O'zbekistan xalq maorifi tadqiq etilayotgan davrga qadar taraqqiyotning uzoq yo'lini bosib o'tgan. Uning ildizlari qadim o'tmishga borib taqaladi. Xalqimiz azaldan yuksak ma'naviyati, ma'rifati va ilmga chanqoqligi bilan ajralib turgan. Yevropada hali ijtimoiy taraqqiyot yuzaga kelmasidan ancha ilgari Markaziy Osiyoda yozuv tarqalib, yosh avlodni o'qitish ishlari tashkil etilgandi. Milliy madaniyat, ilm-fan va maorif taraqqiyotiga arablar fathi ko'p jihatdan ta'sir etdi. Islom dini va arab yozuvi tarqalishi bilan - VIII asrdan boshlab yoshlarga ta'lim va tarbiya berish asosini musulmon maktab va madrasalari tashkil etdi. Musulmoncha diniy ta'lim tizimi shaxsning axloqiy-ma'naviy kamolotini milliy va diniy-ahloqiy qadriyatlarini egallashiga yo'naltirgan edi. Diniy maktab ruhni poklash, islom dini o'g'itlari, yaxshilik va adolat g'oyalarini inson ongiga singdirardi. Maktablar, musulmon ta'lim tizimi boshlang'ich bosqich sifatida, yoshlarning o'qish va yozishni o'rganishlariga ko'maklashar, muqaddas Qur'oni Karim oyatlari, hadisi sharif va boshqa diniy adabiyotlar bilan tanishtirardi. Madrasalar o'rta va oliy ta'lim o'quv yurtlari sanalib, ijtimoiy hayotning turli sohalari uchun milliy mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilardi.

Markaziy Osiyo chor Rossiyasi tomonidan istilo qilingach, ta'limning musulmon tizimiga muqobil bo'lgan dunyoviy ilmlar tizimi yuzaga kela boshladi. U, eng avval, kelgindi rus aholisini o'qitish, chor rejimiga sodiq kishilarni tarbiyalash ishlariga qaratilgan edi. Chorizm ma'muriyati mustabid-ruslashtirish siyosatini olib borar, musulmon maktablari ta'sirini kuchsizlantirish uchun eng

avval o'z maqsadi, g'oyalari, xizmat qiladigan yoshlarni tarbiyalab yetishtiruvchi o'quv muassasalari tashkil etishga intilardi. Biroq mahalliy aholi baribir an'anaviy maktabni afzal ko'rardi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida musulmon o'quv yurtlari ta'lim tizimida muayyan o'zgarishlar ro'y beradi. Avvalo o'quv dasturlariga dunyoviy umumta'lim fanlari kiritila boshlandi. Bu g'oyalar jadid - yangi usul maktablarining vujudga kelishida o'zining to'liq aksini topdi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng milliy xalq ta'limida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hokimiyatni qo'lga olgan bolsheviklar eski tuzumni shiddat bilan parchalab, uni inqilobiy tarzda o'zgartirishga kirishdilar. Ta'lim sohasini "tubdan yangilashning lenincha dasturi" amalga oshirila boshlandi. U markscha mafkuraviy ko'rsatmalarga muvofiq, ijtimoiy ongni kommunalash va o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, sotsialistik ziyolilar sinfini shakllantirish va "proletar" mafkurasi hukmronligini o'rnatishga qaratilgandi. Milliy xususiyatga yot kommunistik ta'limot aqidalariga suyangan sovet siyosiy rahbariyati xalq maorifini rivojlantirish va pedagoglar tayyorlash ishini avval boshdan o'zbek xalqi milliy ongi va obyektiv ehtiyojlariga zid yo'nalishga solib yubordi. Ta'limning sotsialistik shaklini joriy etishga intildi, barcha turdagi o'quv yurtlarini zo'r berib bir qolipga solish, tor sinfiy yondashuv ustunligiga erishish, o'quv-tarbiya jarayonini butunlay siyosiylashtirish, kommunistik dunyoqarashni shakllantirishda asosiy yo'nalish bo'ldi. Har qanday mustabid tobe mamlakatga, eng avval o'z g'oyasini, tilini singdirishga harakat qiladi.

20-yillarning boshlarida yangi o'qituvchilarning kurs ta'limi bilan bir qatorda pedagogika, o'quv yurtlarining barqaror tizimi ham yuzaga keldi. Uning asosiy bo'g'inlarini maorif institutlari, pedagogika texnikumi va bilim yurtlari, shuningdek, o'qituvchilar institutlari tashkil etdi. Ular, asosan, 7 yillik umumta'lim maktabi bazasida 4 yillik o'qish mobaynida o'rta pedagogika ma'lumotini beradigan o'quv yurtlari sifatida faoliyat yuritdi. Barcha sohalarda bo'lganidek xalq maorifiga ham mafkuraviy yondashuv oqibatida pedagogika o'quv

yurtlariga sinfiy mezonlarga javob beradigan, eng avval, ishchi va kambag'ul dehqonlar farzandlari qabul qilinardi.

20-yillar o'rtalarida barqaror o'quv yurtlari tizimining sezilarli darajada kengayishi o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Biroq ko'p hollarda, bu o'quv yurtlari zaruriy moddiy bazasiz ochilar, malakali mutaxassislar, ayniqsa mahalliy millat o'qituvchilari yetishmas edi. O'quv-tarbiya jarayonida jiddiy kamchiliklar yaqqol namoyon bo'ldi. Bu jarayon qat'iy kommunistik mafkura asosida olib borilib, bir yoqlama xususiyata ega bo'lgan va jahon pedagogikasi erishgan yutuqlardan, hamda ko'p asrlik milliy ta'lim tajribasidan uzib qo'yilgandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq, Toshkent, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar' –Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2017. – 488 b.

4. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Tanlangan asarlar. 9 jildli. VII jild. – Toshkent: O'zbekiston. 1999. – 410 b.

5. Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son farmonining 1 ilovasida keltirilgan “2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”. <http://strategy.regulation.gov.uz>

7. O'zbekiston Respublikasining «Arxiv ishi to'g'risida»gi Qonuni (2010).

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 martdagi 1730-son «Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

9. 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 30 oktyabrdagi 482-son «Arxiv ishi bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori.

11. Alimova D. Махмудхожа Бехбудий и его Самаркандский журнал "Ойна" / Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan "Samarqand shahrining umumbashriy madaniy taraqqiyot tarixidagi tutgan o'rnini" mavzusidagi xalqaro konferentsiya materiallari. – Toshkent-Samarqand: Fan, 2007. – S. 325-330.

12. Alimova D. rahbarligida XX asrning dastlabki o'ttiz yilligida O'zbekistonda tarix fani (tarixshunoslik ocherklari). 1-2-qismlar. - Toshkent: Fan, 1994.

13. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. - М.: Изд-во Академии пед. наук РСФСР, 1960. 512 с.

14. История народов Узбекистана. - Ташкент. Т2, 1947. – с 329

15. Остроумов Н.П. Исламоведение. Введение в курс исламоведения. - Ташкент, 1914. С.127.

16. Qori Niyozov T. N. Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar. - Toshkent: O'zdavnashr 1957. b-70

17. Valixojayev B. Samarqandda oliy ta'lim – madrasayi oliya – universitet tarixidan lavhalar. – Samarqand: 2001. – B. 7;

18. Рахимов.Р. Традиционное начальное школьное обучение детей у народов Средней Азии. (конец XIX в.) // Сборник музея антропологии и этнографии. Вып. 43. Памятники тради- ционно-бытовой культуры народов Средней Азии, Казахстана и Кавказа. - Л. 1989. С.130.

19. Раджабов С. К истории советской школы в Узбекистане ... С. 43

20. Самаркандский государственный университет. - Ташкент: Фан, 1990. 246 с.

21. Samarqand tarixi. 2 jildlik. 2-j. - Toshkent: Fan, 1970. 496 bet.



22. Tarixiy manbashunoslik. O'quv qo'llanma. // Tuzuvchilar: A.A. Madraimov., G.S.Fuzailov. – Toshkent: Fan. 2006. – 313 b.
23. O'zbekistonning yangi tarixi O'zbekiston sovet mustamlakachilik davrida // Tuzuvchilar M.Jo'raev, R.Nurullin, S. Kamolov va boshqalar. – Toshkent: SHarq, 2000. – 688 b.
24. O'zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. Davriy to'plam. №2 // tahrir hay'ati: D.Alimova va boshq. – Tashkent: SHarq, 1999. 208 b.
25. Chemomorskiy. M.N. Istochnikovedenie istorii SSSR (sovetskiy period). – M.: Visshaya shkola. 1966. – 343 s.
26. Haydarov I. Turkistonda Iqtisodiy Kengashlar faoliyati. Turoniqbol. 2013.
27. Marianne Kamp, Unveiling Uzbek Women: Liberation, representation and discourse, 1906-1929. Ph.D. diss. (Chicago: The University of Chicago, 1998). pp 280
28. Elizabeth A. Constantine PUBLIC DISCOURSE AND PRIVATE LIVES: UZBEK WOMEN UNDER SOVIET RULE, 1917-1991 Ph.D. diss (Central Eurasian Studies Indiana University, 2001) pp. 97
29. Великий октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана.-М.1971. -324-бет
30. Ж.Хасанбаев. Становление и развитие общего образования взрослых в советском Узбекистане. Ташкент. 1986. С.47
31. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане.М.: АПН РСФСР,1960. С.457
32. Народное образование в Уз ССР за 15 лет (1924–1939). – Ташкент: Государственное учебно-педагогическое издательство Уз ССР, 1939. – С.58.

33. Normurodova G. Contribution of Mahmudhodja Behbudi and its Samarkand followers to the development of the national education // International conference: Mahmudkhodja Behbudi and press of jadids. P.122-127. <https://www.academia.edu/105790749/>

34. Paolo Sartori. Ijtihad in Bukhara: Central Asian Jadidism and Local Genealogies of Cultural Change // Jesho (Journal of the Economic and Social History of the Orient), 59 (2016). – P.200-201. <https://www.academia.edu/22175126/>

35. Adeeb Khalid. Making Uzbekistan: Uzbekistan Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Cornell University Press Ithaca and London, 2015. Pp.199-200.

36. Akramov D. Sovet boshqaruvi davrida O'zbekiston maorifida xotin-qizlarning o'imi // O'tmishga nazar, 2022. №4. -B.19-20.

37. Sevket Hylton Akyildiz. Aims, Goals and Implementation of Soviet Education in Central Asia // The Eurasia Studies Society Journal. Vol.1. No.1. Autumn 2012. P.8. <https://www.academia.edu/74573612/>

39. Marianne Kamp, Unveiling Uzbek Women: Liberation, representation and discourse, 1906-1929. Ph.D. diss. (Chicago: The University of Chicago, 1998). pp 180

40. Рахимова М.Д. Деятельность Самаркандской областной партийной организация по ликвидации неграмотности среди женщин (1925–1927 гг.) // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск 354. – Самарканд, 1978. – С. 22.

41. Самибоев К.Х. Народное образование в гор. Самарканде за годы трех предвоенных пятилеток (1928–1941 гг.) // Труды СамГУ. Новая серия. Выпуск. 101. Материалы по истории народов Узбекистана. Ч.2. – Самарканд, 1960. – С. 118.

42. Bilim o'chog'i. 922. № 1.

43. Известия ВЦИК. 1918 у. 16 oktyabr

44. Ishtirokiyun 1919 yil 4 aprel.

45. Ulug' Turkiston, 1918 yil 6 avgust

#### **Arxiv manbalari**

1. O'zMA, R-17. Turkiston MIQ fondi
2. O'zMA, R-25. Xalq Komissarlari Soveti fondi.
3. O'zMA, R-34. TASSR MXK fondi
4. O'zMA, R-41. TASSRo'quv yurtlar boshqarmasi fondi
5. O'zMA, R-94. O'z R MXK fondi
6. O'zMA, R-181. O'zbekiston maorif instituti fondi
7. Samarqand viloyat davlat arxivi, F-637. UZGU fondi
8. Samarqand viloyat davlat arxivi, F-9
9. Samarqand viloyat davlat arxivi, F-104
10. Samarqand viloyat davlat arxivi, F-94
11. Samarqand VDA, 26-fond.
12. Samarqand VDA, 7-fond.

#### **Internet resurslari**

1. [www.ejwiki.org](http://www.ejwiki.org)
2. [www.iranicaonline.org](http://www.iranicaonline.org)
3. [www.transoxiana.com](http://www.transoxiana.com)
4. [www.uzscience.uz](http://www.uzscience.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>4</b>
<b>I bob.XX asrning 20-yillarida Rossiya hukumatining Turkistonda ta'lim sohasida yuritgan siyosati.....</b>	<b>5</b>
§1.1.Turkiston ta'lim tizimiga sovet modeli joriy qilinishidagi zo'rovonlik siyosati.....	5
§1.2.Yangi pedagogik o'quv yurtlarining vujudga kelishi.....	21
§1.3. O'zbek xotin-qizlarning ta'lim tizimiga jalb qilinishi.....	38
<b>II bob.Samarqand maorif tizimining sovetcha andozaga o'tishdagi dastlabki qadamlar va muammolar.....</b>	<b>50</b>
§2.1.Samarqandda dastlabki pedagogik o'quv kurslarining tashkil etilishi.....	50
§2.2.O'quv kurslaridagi o'quv jarayoning mohiyati.....	55
<b>III bob.Samarqandda yangi bilim yurtlarining vujudga kelishi.....</b>	<b>58</b>
§3.1. Samarqand maorif institutining tashkil etilishi.....	58
§3.2.O'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlarini mafkuraviy tus olishi va pedagoglar tayyorlashdagi muammolar.....	65
<b>Xuloslar.....</b>	<b>69</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>71</b>

